

# VATANPARVAR

IJTIMOIIY-SIYOSIIY, MA'NAVIIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan

www.mv-vatanparvar.uz



2022-yil 25-fevral, №8 (2967)

@vatanparvar09@mail.ru



O'zbekiston qator mintaqaviy tashkilotlar doirasida qabul qilingan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan shartnomalarni bajarishda faol qatnashib kelmoqda.

3-sahifa



Uzoq vaqt ўstirgan «chirойли» sochlari dan ёки bugungi kun urfiga mos «qўrкам» kийimlaridan voz kechishni hoхламаганлар ҳам бўлди. Ammo...

12-13-sahifa



## ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ҚАРОРИ

Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг муддатли ҳарбий хизматга навбатдаги чақируви ҳамда белгиланган хизмат муддатини ўтаб бўлган муддатли ҳарбий хизматчиларни Қуролли Кучлар резервига бўшатиш тўғрисида

«Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига мувофиқ:

1. Чақирилиш муддатини кечиктириш ва чақирилишдан озод этилиш ҳуқуқига эга бўлмаган Ўзбекистон Республикасининг чақирув ёшидаги фуқаролари 2022 йилнинг март-апрель ойларида муддатли ҳарбий хизматга чақирилсин.

Ҳарбий хизматга яроқли, шу жумладан, чекловлар билан яроқли бўлган ҳамда чақирилиш муддатини кечиктириш ва чақирилишдан озод этилиш ҳуқуқига эга бўлмаган, бироқ ушбу чақирув даврида Қуролли Кучлар сафига чақирилмайдиган фуқаролар сафарбарлик чақируви резерви хизматига олинсин.

2. Муддатли ҳарбий хизматнинг белгиланган муддатини ўтаб бўлган ҳарбий хизматчилар 2022 йилнинг март-апрель ойларида Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари резервига бўшатилинсин.

3. Мазкур қарорнинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири А.Н. Арипов ва Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Хавфсизлик кенгаши котиби В.В. Махмудов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси  
Президенти Ш. МИРЗИЁЕВ

Тошкент шаҳри,  
2022 йил 22 февраль

(ЎЗА)



ER YIGIT  
QALQONDIR  
YURTIGA  
DOIM





**Генерал-лейтенант Шавкат НОРМАТОВ, начальник Института военного наследия и современных исследований Вооруженных Сил Республики Узбекистан**

**За последние годы международный экстремизм и терроризм превратились в глобальную проблему современности, которая остается одной из главных угроз международному миру и безопасности. При этом расширяются масштабы, усложняется характер, возрастает численность терактов, становятся более разнообразными их формы, объекты и цели.**

Необходимо признать, что сегодня международные террористические и религиозно-экстремистские организации видоизменились в глобальные вызовы и угрозы, а также приобрели новый облик, достигнув невероятных возможностей. Сегодня они способны поставить под угрозу целостность государств и стабильность целых регионов.

Трансформация международного терроризма в сложное социально-политическое явление требует постоянного поиска путей выработки эффективных мер реагирования, изучения истоков появления экстремистских мировоззрений, данные требования продиктованы ответственностью за благополучие миллионов людей, населяющих обширный регион Центральной Азии.

Именно поэтому в Республике Узбекистан создана и продолжает развиваться национальная система противодействия терроризму, которая включает обширную законодательную, нормативно-правовую и институциональную базу, обеспечивая проведение эффективной контртеррористической политики как внутри страны, так и в международном масштабе. Были приняты Законы Республики Узбекистан «О борьбе с терроризмом» (2000 г.), «О государственной молодежной политике» (2016 г.), «О противодействии экстремизму» (2018 г.), «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин» (2019 г.), Национальная стратегия по правам человека (2020 г.).

В июле 2021 года в целях обеспечения эффективной и скоординированной государственной политики по противодействию экстремизму и терроризму, позволяющей защитить конституционный строй, обеспечить национальную безопасность, а также

## ПРОТИВОДЕЙСТВИЕ ВЫЗОВАМ И УГРОЗАМ ЭКСТРЕМИЗМА И ТЕРРОРИЗМА — ОДНА ИЗ ПЕРВОСТЕПЕННЫХ ЗАДАЧ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

права и свободы граждан, в данной сфере принята Национальная стратегия по противодействию экстремизму и терроризму в Республике Узбекистан на 2021 – 2026 годы.

Сегодня Новый Узбекистан последовательно и безоговорочно осуждает терроризм во всех его формах и проявлениях, привержен международному сотрудничеству, является активным участником всеобъемлющих и комплексных усилий по противодействию международному экстремизму и терроризму, ратифицировав 14 международных конвенций и протоколов в данной сфере.

В 2006 году наша республика поддержала утвержденную Генеральной Ассамблеей ООН Глобальную контртеррористическую стратегию (ГКТС ООН), ставшую уникальным документом по активизации и консолидации национальных, региональных и международных мер в борьбе с различными проявлениями терроризма. Единогласное принятие государствами – членами ООН данной программы, которая сегодня служит общим ориентиром в эффективном противодействии терроризму, впервые ознаменовало формирование международного консенсуса относительно единой стратегической основы для борьбы с этим злом.

К тому же Узбекистан принимает активное участие в реализации ГКТС ООН и на региональном уровне. В частности, в 2011 году странами ЦА на основе многосторонних консультаций и консенсуса был принят Совместный план действий по реализации ГКТС ООН, который сегодня выступает в качестве основы для консолидации усилий соседствующих государств по борьбе с угрозой терроризма. При этом Центральная Азия стала первым регионом, где начата всеобъемлющая и комплексная реализация программного документа.

Это единственная в своем роде региональная стратегия, опытом которой могут воспользоваться и другие государства. По словам Генерального секретаря ООН Антониу Гутерриша, «страны Центральной Азии являются примером в совместном осуществлении данной стратегии ООН».

В прошлом году исполнилось десять лет со дня принятия Совместных действий в регионе по реализации Глобальной контртеррористической стратегии ООН. В этой связи Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев в ходе выступления на 75-й сессии Генеральной ассамблеи ООН озвучил инициативу по проведению в Ташкенте международной конференции высокого уровня, посвященной этой знаменательной дате.

Проведение 3-4 марта этого года международной конференции позволит обменяться уникальным опытом реализации ГКТС ООН в странах региона, определить новые приоритеты и направления взаимодействия, а также придать новый импульс региональному сотрудничеству в борьбе с угрозами экстремизма и терроризма.

Мероприятие олицетворяет практическую реализацию принятой в

июне 2018 года по инициативе Президента Ш. Мирзиёева специальной резолюции ООН «Укрепление регионального и международного сотрудничества по обеспечению мира, стабильности и устойчивого развития в Центральноазиатском регионе».

Нынешняя площадка в Ташкенте соберет солидный состав участников: главы внешнеполитических ведомств стран ЦА, Индии, Пакистана, высокопоставленные должностные лица международных и региональных организаций – ООН, ОБСЕ, ЕС, РЦПДЦА, ШОС, СНГ, Интерпол, а также главы зарубежных дипломатических миссий в Узбекистане.

Узбекистан является активным участником Шанхайской Организации Сотрудничества, целью которой также является совместное обеспечение и поддержание мира, безопасности и стабильности в регионе. В данном контексте следует отметить, что учреждение Региональной антитеррористической структуры (РАТС) ШОС с размещением её штаб-квартиры в Ташкенте стало своего рода признанием ведущей роли Республики Узбекистан в борьбе с терроризмом. Ежегодно при содействии и координирующей роли Исполкома РАТС ШОС на территории сторон проводятся совместные антитеррористические учения, в которых представители Узбекистана принимают активное участие.

Аналогичную работу проводит Антитеррористический центр Содружества Независимых Государств (АТЦ СНГ). В рамках СНГ принята «Программа сотрудничества государств-участников СНГ в борьбе с терроризмом и иными насильственными проявлениями экстремизма на 2020 – 2022 годы». Успешность подобной практики демонстрирует тот факт, что правоохранительные органы стран Содружества только в 2020 году совместно ликвидировали 22 ячейки международных террористических организаций, которые вербовали людей для подготовки в ряды боевиков за рубежом.

В деле противодействия терроризму Республика Узбекистан уделяет особое внимание партнерству с Организацией по безопасности и сотрудничеству в Европе (ОБСЕ), которое подкрепляется двухгодичными программами по совместному сотрудничеству в военно-политическом измерении. Так, в рамках сотрудничества на 2021 – 2022 годы, ключевыми целями обозначены противодействие терроризму, обеспечение информационной кибербезопасности и содействие в борьбе с финансированием терроризма.

Налажен механизм проведения Контртеррористическим управлением ООН и Управлением ООН по наркотикам и преступности поэтапных учебных курсов по борьбе с терроризмом, насильственным экстремизмом, организованной преступностью и финансированием терроризма для сотрудников правоохранительных органов страны.

Следует отметить, что принципы такого сотрудничества заключаются в следующем:

во-первых, эффективно противостоять современным угрозам можно только путем укрепления коллективных механизмов международного сотрудничества, принятия последовательных мер, исключающих возможность применения двойных стандартов;

во-вторых, первоочередное внимание должно уделяться борьбе с причинами угроз, а не с их последствиями. Международному сообществу важно активизировать вклад в борьбу с радикальными и экстремистскими центрами, культивирующими идеологию ненависти, создающими конвейер формирования будущих террористов;

в-третьих, реагирование на возрастающую угрозу терроризма должно быть всеохватывающим, а ООН должна играть роль ключевого мирового координатора в данном направлении.

С учетом изменения форм, объектов и целей терроризма, Республика Узбекистан адаптирует свою стратегию борьбы с терроризмом к современным вызовам и угрозам, делая ставку на борьбу за умы людей, в первую очередь, молодежи, путем повышения правовой культуры, духовно-религиозного просветительства и защиты прав человека.

Руководство страны опирается на принцип: важно бороться с причинами, обуславливающими становление граждан восприимчивыми к террористическим идеологиям.

Государство своей контртеррористической политикой старается выработать у граждан, с одной стороны, иммунитет против радикального понимания ислама, воспитать толерантность, с другой стороны – инстинкт самосохранения против вербовки.

В целом, используемый Республикой Узбекистан комплексный подход в предотвращении угроз экстремизма и терроризма имеет особое значение для безопасности и благополучия населения, обеспечения национальной и региональной стабильности.

В настоящее время Узбекистан находится среди самых безопасных стран мира. В «Глобальном индексе терроризма» за 2020 год среди 164 государств Узбекистан занял 134 место и вновь вошел в категорию стран с незначительным уровнем террористической опасности.

Высокий уровень безопасности в стране благотворно влияет на инвестиционную привлекательность государства, что позволяет республике успешно осуществлять взаимовыгодное сотрудничество со многими странами мира в торговой, экономической, научно-технической, социально-гуманитарной, культурной и других областях.

Таким образом, наряду с другими субъектами мирового сообщества, усилия Республики Узбекистан направлены на реализацию комплексных мер противодействия терроризму, экстремизму и радикализму, которые позволяют сообща решать задачи по обеспечению региональной и международной безопасности.

# TERRORISTIK

## G'UYALAR TARQALISHINING OLDINI OLISH

**Kommunikatsiya va informatsion texnologiyalarning tez sur'atlardagi taraqqiyoti g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishiga turtki bo'lib, geosiyosiy maqsadlarga bo'ysundirilgan, inson qalbi va ongi uchun kurashlarning yangidan yangi usul hamda vositalarining ko'payib borayotgani, ayniqsa, bu borada din omilidan foydalanishga urinishlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Aksariyat holatlarda ushbu kurash qurolli tus olib, ko'plab xalqlarning boshiga fojiali kunlarni solmoqda.**



### DINIY SHIORLARNI NIQOB QILIB

So'nggi yillarda, ayniqsa, dunyoning qator mamlakatlarida, xususan, Yaqin Sharq mamlakatlarida turli noqonuniy qurolli tuzilmalar tomonidan islomiy davlat qurish shiori ostida insoniyatga qarshi jinoyatlar sodir etilmoqda. Oqibatda, Iroq, Suriya, Liviya kabi aslida ulkan iqtisodiy salohiyatga ega mamlakatlar chuqur ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tanazzulni boshidan kechirmoqda. Xalqaro valyuta fondi ma'lumotlariga ko'ra, turli to'qnashuvlar natijasida arab mamlakatlari iqtisodiyoti 2011 – 2020-yillar oraliqida 800 mlrd AQSh dollari miqdorida zarar ko'rgan. Qonli fojialar tufayli ushbu davlatlar yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'atlari keskin pasaygan, ishsizlik darajasi deyarli ommaviy tus olgan.

Yuzlab ziyoratgohlar, shia musulmonlarining masjidlari, xristianlarning cherkov va monastirlari, maktab va kutubxonalar vayron qilindi. Ma'lumotlarga ko'ra, bugun dunyoda 500 ga yaqin terrorchilik tashkiloti faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning 80 foizi islom niqobi ostida faoliyat yuritadi.

Siyosiy hokimiyatga intilayotgan, diniy shiorlarni niqob qilib olgan aqidaparast oqimlar Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan, O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga ham salbiy ta'sir o'tkazishga harakat qilmoqda.

Mutaassib oqimlar yoshlar ichidagi faoliyatini xorijiy mamlakatlardagi mehnat migrantlarini ta'sir doirasiga olish, Internet orqali targ'ibot o'tkazish, oila a'zolari, yaqinlari va qo'shnilarini o'z guruhiga tortish, yashirin "hujralar" tashkil etish, diniy-ekstremistik mazmundagi materiallarni bosma, elektron ko'rinishda tarqatish kabi usullarda amalga oshirmoqda. Mutaxassislar fikricha, hozirda 100 mingdan ortiq ekstremizmning turli ko'rinishlarini o'zida tashuvchi g'oyalar targ'iboti bilan shug'ullanuvchi saytlar faoliyat olib bormoqda. Internet

orqali suhbat olib borish jarayonida yoshlarga kufr diyori, hijrat, jehod, shahidlik, xalifalikni tiklash kabi g'oyalar singdirilib, ular turli to'qnashuv va nizo o'choqlariga jalb qilinmoqda. Muayyan siyosiy kuchlarning nog'orasiga o'ynayotgan diniy-ekstremistik va terrorchi oqimlar tomonidan u yerlarda amaliyotni o'tab kelgan aqidaparast, diydasi qotgan, mustaqil fikrlashdan mahrum, rahnamolarining har qanday buyruqlarini qonun deb biluvchi zombi jangarilardan tinch mintaqalarda ham turli nizolar va beqarorliklarni keltirib chiqarishda foydalanish maqsadi bugun ko'pchilikka ayondir.

### "EKSTREMISTIK QARMOQLAR"

Ayniqsa, "jihodchi" guruhlar o'z safiga yangi shaxslarni jalb etishda Internet va ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanmoqda. Turli Internet saytlari, xususan, "Odnoklassniki", "Twitter" kabi ijtimoiy saytlarda tashkil etilgan har xil nomlardagi forum va guruhlar "YouTube" portalidan keng foydalanilmoqda. Mazkur guruhlarining targ'ibotchilari ko'p vaqtini Internetda o'tkazuvchi, vaqtincha ishsiz, xorijda pul topish ilinjida yurgan va ijtimoiy holatdan norozi shaxslarni o'z saflariga qo'shish maqsadida ular bilan go'yoki "musulmonlarning azoblanayotgani" haqida suhbatlar olib boradi. So'ngra islom olamidagi "muammolar" sanab o'tilib, aybdorlar sifatida dunyoviy davlat va jamiyat ko'rsatiladi. Bundan keyin esa barcha muammolarning "yechimi" sifatida "kofirlar"ga qarshi "jihod" qilish taklif etiladi. Buning uchun esa avvalambor "hijrat" qilish lozimligi uqtiriladi. Bilimsiz, o'z mustaqil fikri va atrofdagi hodisalarni tahlil etish malakasiga ega bo'lmagan yoshlar bunday da'vatlarga uchib, aqidaparast oqimlarga moyil bo'la boshlaydilar. Qisqa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar "ekstremistik qarmoqlar" vazifasini o'tamoqda.

Aslida esa yoshlarni o'z safiga chorlayotgan, o'zini "mujohid" deb tanitayotgan kimsalar tinch aholini qatl etmoqda, ayol-qizlarni xo'rlab, nomuslariga tajovuz qilmoqda. Norasida bolalarni o'ldirmoqda. Islomning beshinchi arkoni bo'lgan haj amalini bajarishga borayotganlarni "toshga sig'inuvchilar" deb e'lon qilib, ularga tahdid qilmoqda. Dinimiz qiblasini bo'lgan muqaddas Baytullohni vayron qilishga va'da bermoqda. Uy-joylar, maktab va kutubxonalar, qishlog'-u shaharlarni vayron qilib, mo'ysafid otaxon, mushtipar onalar, norasida go'daklarni ko'chalarda sargardon qilmoqda. Ming taassufki, ayrim yoshlarimiz ichida ham ota-onasini qon yig'latib, Suriya, Iroq kabi fitna o'choqlariga ketib qolganlari bo'ldi. U yerlarda diydasi qotgan jallodlarga aylanib, o'z yurtiga qurol o'q'talib, xalqi, ota-onasi va dindoshlariga tahdid qilishdek tubanlikka yuz tutishdi.

### QARSHI KURASH

Mustaqil hayotni boshlayotgan yoshlarimizni turmushda ularni og'ir sinovlar kutib turganini, xususan, bizning yurtimiz, xalqimizga do'st bo'lmagan, soxta g'oyalar bilan hali hayotiy tajribaga ega bo'lmagan o'smirlarimizni oilasi va Vatandan ayirib olib, o'z manfaatlarini yo'lida qurbon qilishdek g'araz maqsadlarga ega kuchlar borligidan ogohlantirib borish zarur. Yuqorida qayd etilgan holatlar hushyorlikni qo'ldan boy bermaslik, hamisha ogoh bo'lib yashash zaruratini yana bir marta ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston qator mintaqaviy tashkilotlar doirasida qabul qilingan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan shartnomalarni bajarishda faol qatnashib kelmoqda. Terrorizmga qarshi kurash, uni bartaraf etish masalalariga oid siyosiy-huquqiy hujjatlar BMT, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti doiralarida imzolangan. Hozirda O'zbekiston BMTning terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashga qaratilgan asosiy 13 ta hujjatini ratifikatsiya qilgan. BMT Xavfsizlik kengashi Aksilterroristik qo'mitasi tomonidan O'zbekistonning terrorizmga qarshi kurashdagi xalqaro hamkorligi yuksak baholanadi. Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatida "uch yovuz kuch", ya'ni "terrorchilik", "ayirmachilik" (*separatizm*) va "ekstremizm"ga qarshi kurashda hamkorlikni rivojlantirish alohida o'rin tutadi. 2004-yildan beri

Toshkentda ShHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Rossiya, Xitoy, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan xalqaro terrorizmga qarshi kurashda samarali hamkorlik qilib kelmoqda. O'z navbatida, jamiyatimizda diniy ekstremizm va terrorizm mafkurasi tarqalishining oldini olishda profilaktik va tushuntirish ishlari saviyasi va ta'sirchanligini tizimli ravishda kuchaytirib borish bugungi kunning hayotiy muhim masalasiga aylandi.

Hozirgi kunda respublikamizda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda davlat va fuqarolik jamiyatining samarali hamkorligi yo'lga qo'yilgan. Davlat amaldagi qonunlarimizga zid ravishda konstitutsion tuzumga qarshi guruhlarining faoliyatini aniqlaydi va ularga chek qo'yadi. Jamiyat OAV, ma'naviyat yo'nalishida faoliyat yuritadigan tuzilmalar, jamoat va diniy tashkilotlar orqali fuqarolarni aqidaparast g'oyalarning ta'siriga tushib qolishining oldini olishga qaratilgan profilaktik va tushuntirish ishlarini amalga oshiradi. Xususan, Din ishlari bo'yicha qo'mita, Toshkent islom universiteti, O'zbekiston musulmonlari idorasi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi davlat idoralari va manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda har yili diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash yo'nalishida dastur asosida tizimli faoliyat yuritmoqda. Targ'ibot va tushuntirish ishlari OAV, Internet, tele va radiodasturlardagi chiqishlar, o'quv muassasalari, mahalla fuqarolar yig'inlari, turli tashkilot va korxonalarda ma'rifiy tadbirlar o'tkazish shakllarida amalga oshirilmoqda. Ulamolarimiz davriy ravishda tashkil etilayotgan uchrashuvlarda mutaassib da'vatchilarning soxta da'volarini dalillar bilan fosh etib, aholini, ayniqsa, yoshlarni aldovlarga uchmaslikka chaqirmoqdalar.

Tinchlikni asrash hushyorlik va ogohlilikni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, globallashuv jarayonlari shiddatli tus olgan hozirgi zamonda xalqimizda, ayniqsa, yoshlarda milliy g'urur, iftixor tuyg'usini yanada chuqurroq shakllantirish, yot g'oyalardan saqlovchi mafkuraviy immunitetni shakllantirish O'zbekiston kelajagiga o'zini mas'ul hisoblovchi barcha yurtdoshlarimizning muhim vazifasi bo'lib qoladi.

**Abduvali SOIBNAZAROV,**  
siyosiy sharhlovchi





## Markaziy harbiy okrug “Sazagan” dala-o‘quv maydonida harbiy xizmatchilarning navbatdagi o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazildi.

Ishtirokchilar o‘zlarining qanchalar sergak va jangovar shayliklarini ko‘rsatishdi. Har bir harbiy xizmatchi vazifasidan kelib chiqib, ishi bilan mashg‘ul. Vatan osoyishtaligi yo‘lida ularning har biri bir-biridan qolishmaydigan darajada muhim. Bu o‘rinda vazifalarni va shaxsiy tarkibni to‘g‘ri taqsimlash, vaziyatdan kelib chiqib, komandirlar o‘z vaqtida tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qilishi, jamoaning jipsligi, batalyon taktik guruhini eng qisqa

muddatda yuqori jangovar shaylikka keltirilishi muhim ahamiyatga ega.

Belgilangan muddatda qurol-aslaha bilan saflangan o‘quv mashg‘uloti ishtirokchilari harbiy texnikalar kolonnasida “Sazagan” dala-o‘quv maydoniga yo‘l oldi. Yo‘lda uchragan shartli dushman hujumi, talafotsiz bartaraf etildi. Jangovar mashinalarda poligonga yetib kelgan shaxsiy tarkib o‘z pozitsiyalarini egalladi.

Harbiy xizmatchilar foydalanishga topshirilganiga ko‘p bo‘lmagan “Sazagan” poligoni xursandchiliklarga sabab bo‘lganini aytishdi. “Kattaqo‘rg‘on” dala-o‘quv maydoniga nisbatan harbiy qismga ancha yaqin, vaqt bo‘lganda yaqinlar holidan xabar olish imkoniyati ortdi. Bu nafaqat oilalar mustahkamligiga, balki jangovar shaylikning oshishiga ham xizmat qiladi. Yaratilgan shart-sharoitlarga yarasha faol xizmatimiz

bilan munosib javob qaytarish harakatidamiz, deydi ular.

– Ushbu o‘quv mashg‘ulotida zirhli guruh komandiri sifatida ishtirok etdim. Jamoamiz bilan noqonuniy qurollangan shartli guruhni yakson qildik. Bu kabi o‘quvlar amaliy tajriba va ko‘nikmalarimizni oshiradi. Oliy harbiy ta‘lim muassasasida olgan nazariy bilimlarimni amaliyotda qo‘lladim, – deydi leytenant Sarvar Gulmurodov.

Katta leytenant Rahmon Yusupov taktik o‘quvlarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ko‘proq foydalanish lozimligini, bu armiyaning qudratini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanini ta‘kidladi.

Ha, texnika rivojlanib, taraqqiy etgani sari qiyofasiz dushmanning hiylalari ham ortib bormoqda. Ularga o‘z vaqtida chap berish va xavfni bartaraf qilish oson bo‘lmayapti. Buning uchun Vatan himoyasidagi o‘g‘lonlar nazariy va amaliy bilimlarini, jangovar va jismoniy tayyorgarliklarini muntazam takomillashtirmoqdalar.

O‘quv mashg‘uloti davomida ishtirokchilar tajriba va mahoratlarini yana bir bor sinovdan o‘tkazdilar.


Kapitan Aziz NORQULOV,  
“Vatanparvar”

TOBLANISH  
MAYDONIDAGI MARDLAR





# БИР ЙИГИТГА ҚИРҚ ХУНАР ҲАМ ОЗ



**Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги раҳбарияти томонидан оддий аскар ҳамда сержантлар таркибига мансуб контракт бўйича ҳарбий хизматчиларнинг касбий маҳоратларини янада ошириш, жанговар тайёргарлик тадбирларини сифатли ташкиллаштириш ва ўтказишга зарур шарт-шароитлар яратилган.**

Эндиликда Мудофаа вазирлиги қўшинларидаги йўриқчи-сержантларнинг ўз бўйсинувчи бўлинмаларида мутахассисларни сифатли ўқитишни таъминлаш, шунингдек, қўшинлар жанговар тайёргарлик даражасини ошириш ҳамда йўриқчи-сержантларнинг тайёргарлик даражаси, амалий кўникмалари доимо такомиллаштириб борилади.

«Фориш» тоғ-ўқув полигонига ўтказилган ўқув-услубий йиғин давомида йўриқчи-сержантлар тоғ тайёргарлиги, тиббий хизмат кўрсатиш, топография, алоқа, жанговар қуроллардан отиш, сапёр-муҳандислик, оммавий қирғин қуролларидан химояланиш, механик-муҳандислик, разведка қидирув каби йўналишлар ва жисмоний тайёргарлик бўйича имтиҳон топширдилар. Ўқув-услубий йиғинни ўтказиш учун олий ҳарбий таълим муассасаларидан профессор-ўқитувчилар, «Чимён» тоғ тайёргарлиги ўқув машқлари маркази ва қўшинлардан етакчи мутахассислар жалб этилди.

Ўз-ўзидан йўриқчи-сержантлар юқорида санаб ўтилган йўналишлар бўйича мутахассислик билимига эга-ку, деган савол туғилиши мумкин. Тўғри, «Фориш» тоғ-ўқув полигонига келганларнинг қайсидир бири мерган, яна бошқалари разведкачи, сапёр-муҳандис, механик-муҳандис ёки миномётчи, пулемётчи, топограф эканлиги аниқ. Яъни ўз мутахассислигининг профессионали. Йўриқчи-сержантлар ўз йўналишидан ташқари ўқув-услубий йиғин дастурига киритилган бошқа мутахассисликлар бўйича билим ва кўникмалар олиши белгилаб қўйилган. Қисқа қилиб айтганда, ҳарбий хизматчи жанговар вазиятларда бир вақтнинг ўзида тоғ қояларига чиқа олиши, яраланганларга тиббий хизмат кўрсатиши, топография воситаларидан фойдаланиши ва алоқани тиклаши, ҳар қандай жанговар қуроллардан мохирлик билан отиши, оммавий қирғин қуролларидан

химояланиши, муҳандис-механик, муҳандис-сапёр, разведка қидирув гуруҳи аъзоси вазифасини бажара олиши керак.

Ўқув-услубий йиғин ўн кун давом этиб, округлардаги барча қўшин бўлинмаларида хизмат фаолиятини олиб бораётган ҳарбий хизматчилар иштирок этди. Контракт бўйича хизмат бурчини ўтаётган оддий аскар ҳамда сержантлар тажрибали мутахассислар назоратида ҳар қандай шароитда белгиланган меъёрлар бўйича имтиҳондан ўтишди. Тоғли ва текис рельефли ҳудудларда кундузи ҳам, тунда ҳам бир хил ҳаракатланиб, жанговар топшириқларни бажариш ҳар бир юрт химоячисидан профессионалликни талаб этади. Бунинг устига юқорида айтиб ўтганимиздек, қўшимча мутахассисликларни ўзлаштириш ҳар кимнинг ҳам қўлидан келавермайди. Шунинг учун Мудофаа вазирлиги жанговар тайёргарлик бошқармаси масъул офицерлари биринчи марта ташкиллаштирилган бу ўқув-услубий йиғинга тажрибали профессорлар ва халқаро мусобақаларда тобланган етакчи йўриқчи устозлар хизматидан фойдаланди.

– Кўриб турганингиздек, ўқув-услубий йиғиннинг тоғ тайёргарлиги бўйича машқларини аълога бажараётганлар талайгина. Улар орасида ҳақиқий ҳарбий альпинистлар борлиги кўзни

қувонтиради. Бир қарашда химоя воситалари ёрдамида тоғ дарасига тортилган арқондан ўтиш, қояга чиқиб тушиш унчалик мураккаб туюлмадлиги мумкин. Аммо айнан шу машқларни жанговар вазиятда ўта тезкорлик билан амалга оширишнинг ўзига хос қийинчиликлари бор, – дейди тоғ тайёргарлиги бўйича йўриқчи кичик сержант Ҳусниддин Хизиралиев.

– Мутахассислигимиздан ташқари бир неча йўналишда касбий маҳоратимизни оширишга имконият берувчи йиғинда қатнашаётганимдан мамнунман. Биз ўн кун давомида тоғ қояларига чиқиш, яраланганларга тиббий хизмат кўрсатиш, топография воситаларидан фойдаланиш, алоқа ўрнатиш, ҳар қандай жанговар қуроллардан отиши, оммавий қирғин қуролларидан химоя-

ланишни, муҳандис-механик, муҳандис-сапёр, разведка қидирув гуруҳида ҳаракатланиш бўйича устозлардан керакли билим ҳамда кўникмаларни олдик. Ортирилган тажрибамиз келгусида ўзимиз хизмат қилаётган ҳарбий қисмда кенг кўламда фойдаланиш имкония-

тини беради, – дейди йўриқчи-кичик сержант Бунёд Санақулов.

Ўқув-услубий йиғин давомида йўриқчи-сержантларнинг касбий маҳорати, амалий кўникмаларини ошириш, жанговар тайёргарлик тадбирларини ташкиллаштиришда ва шахсий таркибни ўқитишда уларнинг услубий билимларини такомиллаштириш, ҳар бир йўриқчи-сержантнинг касбий тайёргарлик даражасини аниқлаш ҳамда етакчилик, услубий тайёргарлик қобилиятини такомиллаштириш, ўз касбига бўлган садоқат ҳиссини янада ошириш каби мақсадларга эришилди. Эндиликда миллий армиямиз сафида доимий ана шундай йўриқчи-сержантлар фаолият олиб боради.





## DESANTCHILARIMIZ NAVBATDAGI AMALIY SAKRASH MASHG'ULOTLARIDA

Sharqiy harbiy okrug qo'shinlari Farg'ona dala-o'quv maydonida harbiy xizmatchilar nazariy bilimlarini amalda mustahkamlash va kasbiy ko'nikmalarini oshirish maqsadida zamonaviy parashyut sistemalaridan amaliy sakrash mashqlarini bajarishdi.

Milliy armiyamiz nufuzi yildan yilga oshib borayotganini mana shunday mashg'ulotlar misolida ko'rish mumkin. Uchish apparatidan samoda ajragan desantchidan havodagi mashg'ulotlarni bajarishda o'zini boshqarish,

muvozanatni saqlash, bundan tashqari guruhni yer releflarida ko'rsatilgan nuqtaga boshqarib borish kabi ko'nikmalar talab etiladi.

Dala maydonini kuzatar ekanmiz mashg'ulot rahbari tomonidan harbiy xizmatchilar bilan guruh tarkibida maxsus topshiriqlarni bajarish uchun alohida o'quv nuqtalaridan nazariy

tekshiruvlardan o'tish ishlari boshlandi. Sakrash mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish, birinchi navbatda ularni axloqiy-ruhiy holati ko'zdan kechirilib, xavfsizlik qoidalarini yetkazildi.

So'ngra harbiy xizmatchilar birin-ketin amaliy sakrash mashg'ulotlarini bajarishga kirishdilar.

Sharqiy harbiy okrug  
matbuot xizmati



### #Kelajagimiz egalari

## QALBLARNI BIRLASHTIRGAN



## TASHABBUS

Mudofaa vazirligiga qarashli Buxoro viloyati Qorovulbozor tumanida joylashgan harbiy qism tashabbusi bilan tuman hokimligi, ichki ishlar bo'limi, Milliy gvardiya bilan hamkorlikda "Milliy armiyamiz yoshlar nigohida" mavzusida Imom Buxoriy mahallasida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iste'dodi va tashabbuslarini rag'batlantirish hamda hayotda o'z o'rnini topishlariga ko'maklashishga qaratilgan keng qamrovli festival tashkil etildi.

Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini targ'ib qilishga qaratilgan festivalning avvalida harbiy orkestr hamrohligida Qorovulbozor tumanida joylashgan harbiy qismning bir guruh harbiy xizmatchilari hamda yoshlar mahalla ko'chalari bo'ylab davlatimiz bayrog'ini mardonavor ko'tarib, saf bilan yurib o'tishdi.

Tadbirning badiiy qismida harbiy orkestr jamoasi ijrosidagi Vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlar tarannum etildi. Tadbir davomida harbiy xizmatchilar tomonidan taqdim etilgan faxriy qorovul chiqishlari hamda zamonaviy qurol-aslaha va

harbiy texnikalar namoyishi mahalla yoshlarining olqishiga sazovor bo'ldi. Yuqori kayfiyatda boshlangan festival davomida mahalladagi yoshlar o'rtasida sportning tosh ko'tarish, milliy kurash, shaxmat va shashka hamda turli milliy o'yinlar o'tkazildi.

Umuman olganda, keng qamrovli festival yoshlarni ertangi kunga bo'lgan ishonchini, o'zlaridagi iste'dod va iqtidorini namoyon etish hamda eng muhimi, yurt ravnaqi uchun daxldorlik hislarini oshirdi. Tadbir so'ngida faol yoshlar qimmatbaho sovg'alar va esdalik nishonlari bilan taqdirlandi.



## QARLIQDA

## YOSHLAR FESTIVALI

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga qarashli Muborak tumanida joylashgan harbiy qismlarning birida "Vatan – muqaddas, uni himoya qilish sharafli burchdir!" shiori ostida Qarliq mahalla yoshlari ishtirokida harbiy-vatanparvarlik festivali tashkil etildi.



Festival doirasida mahalla yoshlari bilan sportning arqon tortish, harbiylashtirilgan estafeta hamda o'quv qurollaridan amaliy o'q otish musobaqalari o'tkazildi. Bundan tashqari tadbirning badiiy qismida o'quvchi-yoshlar tomonidan vatanparvarlik ruhidagi kuy-qo'shiqlar jonli ijro etildi,

ayniqsa, harbiylar tomonidan qo'l jangi chiqishlari mahalla yoshlarida katta taassurot qoldirdi.

Ushbu tadbir Muborak tumani hokimligi, tuman yoshlar ittifoqi va mudofaa ishlar bo'limi bilan o'zaro hamkorlikda tashkil etilib, jami 500 nafar yosh keng jalb qilindi.



## KELAJAGIMIZ BUNYODKORLARI

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Qurolli Kuchlar akademiyasi bilan hamkorlikda poytaxtimiz mahallalaridagi yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, intellektual jihatdan kamol topishini, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda o'z o'rnini topishlariga ko'maklashish maqsadida "Milliy armiyamiz yoshlar nigohida" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.



Unda Chilonzor va Mirzo Ulug'bek tumanlaridagi umumta'lim maktablari o'quvchilari va mahallalardagi uyushmagan yoshlar ishtirok etib, akademiya kursantlarning bilim olishi, dam olishi, yashashi uchun yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishishdi.

Tadbir jarayonida sport maydonida yoshlarga kamondan otish, karting va avtomobil haydash yuzasidan ilk ko'nikmalar berildi. Avtomobilni xavfsiz boshqarish borasida amaliy mashg'ulotlar, ayniqsa, qizlarda juda katta qiziqish o'yg'otdi.

Shundan so'ng "Milliy armiya yoshlar nigohida" mavzusida davra suhbat o'tkazildi. Unda harbiy prokuratura xodimi tomonidan

mamlakatimizda, Qurolli Kuchlarda amalga oshirilayotgan islohotlar, yoshlarga yaratilgan sharoit va imkoniyatlar haqida batafsil ma'lumot berildi, yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollariga to'laqonli javob oldilar.

Kunning ikkinchi yarmida tadbir Mirzo Ulug'bek tumandagi 121-umumta'lim maktabida davom ettirildi. Maktab zalida yoshlar yetakchilari, mahalla faollari, uyushmagan

yoshlar hamda o'quvchi-yoshlar o'rtasida o'tkazilgan "Yosh kitobxon" tanlovi g'oliblariga kitoblar jamlanmalari taqdim etildi. Tadbirda ishtirok etgan Qorovul qo'shinlari harbiy orkestrining chiqishlari qalblarga o'zgacha shukuh bag'ishladi. Shuningdek, Qurolli Kuchlar akademiyasi kursantlardan iborat "Quvnoqlar va zukkolar" jamoasining chiqishlarini ham ishtirokchilar katta olqishlar bilan qarshi olishdi.

**Adliya podpolkovniki  
Alisher QURBONOV,  
O'zbekiston Respublikasi  
Harbiy prokurorining yordamchisi**

## OCHIQ OSMON OSTIDA

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi "Termiz" umumqo'shin poligonida 600 nafardan ziyod yosh ishtirokida "Milliy armiyamiz yoshlar nigohida" shiori ostida harbiy-vatanparvarlik festivali o'tkazildi.



Ochiq osmon ostida o'tkazilgan festivalga viloyat hokimligi, okrug qo'mondonligi, Termiz harbiy prokuraturasi, davlat va jamoat tashkilotlari xodimlari hamda o'quvchi-yoshlar ishtirok etdi. Festival doirasida zamonaviy harbiy texnikalar, qurol-yarog'lar namoyish qilindi. Shuningdek, faxriy qorovul chiqishlari ham yoshlarda katta qiziqish uyg'otdi. Baxshilar tomonidan terma va dostonlar, chanqovuz kuylari hamda xonandalarning Vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlari ijro etildi.

Sportning kurash, tosh ko'tarish, arqon tortish, havo miltig'idan nishonga qarata o'q uzish turlari bo'yicha yoshlar o'rtasida musobaqalar bo'lib o'tdi. Musobaqada g'oliblikni qo'lga kiritgan yoshlar Termiz tumani hokimligi va okrug qo'mondonligining esdalik sovg'alari hamda faxriy yorliqlari bilan taqdirlandilar.

**III darajali serjant  
Akbar AHMEDOV  
Termiz garnizoni**

## #Ekskursiya

### ORZUNING TUG'ILGAN KUNI

Poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan 101- ixtisoslashtirilgan maktab-internati o'quvchi-yoshlari O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasiga borishni anchadan beri niyat qilib yurardi. Bu orzu akademiya tomonidan tashkil etilgan ochiq eshiklar kunida ro'yobga chiqdi.



Maktab-internat direktori Dinara Sadikova boshchiligidagi jamoani akademiya o'qituvchilari iliq kutib oldi.

Markaziy Osiyoda yagona, jangovar saflarga yetuk va malakali ofitser kadrlarni yetkazib beradigan bu ilm dargohi o'zining bir asrlig tarixiga ega. O'quvchilar dastlab shu va shunga o'xshash bir-biridan qiziqarli ma'lumotlar bilan akademiya muzeyida tanishdi.

Shundan so'ng bu yerdagi ta'lim tizimi, kursantlarning o'z ustida ishlashi uchun yaratilgan shart-sharoitlar, shaxsiy rivojlanish uchun yaratilgan qulayliklar, yashash tarzi va kundalik faoliyati haqida batafsil ma'lumot berildi. O'quvchilarga hamrohlik qilgan Respublika harbiy prokurorining katta yordamchisi adliya polkovniki Sherzod Haitov



milliy armiyamizning dunyodagi nufuzi, Qurolli Kuchlar tizimidagi islohotlar va harbiylarimiz qo'lga kiritayotgan yutuqlar bilan tanishtirib o'tdi.

To'g'ri, maktab-internat o'quvchilarining eshitish va gapirish imkoniyati cheklangan. Ammo ularning mehnatkashligi, shijoati va g'ayrati kishida havas uyg'otadi. Bu jihat panoramali elektron o'q otish trenajyorida yaqqol namoyon bo'ldi. O'quvchilar nishonni bexato urishda kursantlardan sira qolishmadi.

Taassurotlarga boy bo'lgan kun ana shunday yakunlandi, o'quvchilar orzusi ushaldi. Buni chin ma'noda orzuning tug'ilgan kuni deyish mumkin.

**Leytenant Islomjon QO'CHQOROV,  
"Vatanparvar"**

## #Davlat siyosati – amalda

### HAMMA ZAMONLARGA ZAMONDOSH ZOTLAR

**Bu e'tirofni navoiyshunos olim  
Suyuma G'aniyeva ta'kidlagan  
edilar.**

Ha, har ikkisi – hazrat Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur hamma zamonlarga zamondosh zotlar! Bizdan avval ham ularning asarlari o'rganilgan, oydinlarimiz bizga ham tanitdilar, bolalarimiz ularni sevib o'qimoqda.

Ulug'larimizning tavallud kunlari munosabati bilan joylarda qator ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi. Hammasidan ham bolajonlarimiz ishtirokidagi dasturlar a'lodir! Poytaxtdagi 248-umumta'lim maktabida ham shunday tadbir bo'lib o'tdi. Buyuklarimiz ijodidan g'azallar yangradi, sahna ko'rinishlari namoyish etildi.

Bu maktabda hazrat Alisher Navoiyning ikki yuzdan(!) ziyod g'azalini yod biladigan Fazilat Mirvohidova ismli o'quvchi bor. U g'azallarni shunchaki yod olmagan, har birining mazmun-mohiyatini izohlab berish darajasida o'rgangan.

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda bir so'rovnomanini kuzatdim. Unda hazrat Navoiy tug'ilgan yili va kuni so'raldi. Ishonasizmi, deyarli hech kim adashmadi. Biz ulug'larimizni bilamiz, ular bilan iftixor qilamiz. Bunda har bir bola ishtirok etadigan bu kabi tadbirlarning ham alohida o'rni bor.

**Hilola SAGDULLAYEVA  
Toshkent shahri**



Joriy yilning 2-mart kuni mamlakatimizning Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lganligiga 30 yil to'ladi. Bu — katta ahamiyatga molik voqea. Ushbu sanadan boshlab, O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyektiga, a'zosiga aylandi. Qolaversa, mamlakatimizning oyoqqa turish, rivojlanish yo'llarida bu tashkilotning juda katta o'rni bor.



## ORZULAR

# USHALGAN VA MAGAN

## MANZIL

Uning Nyu-York shahrida joylashgan bosh qarorgohi oldidagi maydonga o'rnatilgan a'zo mamlakatlar bayroqlari orasida yurtimiz bayrog'ining ham hilpirab turishi xalqimiz necha asrlar davomida intilib va orzu qilib kelgan erk hamda ozodlik ramzi hisoblanadi. Shu qisqa davr ichida mamlakatimizning tashkilot ishidagi faol ishtiroki barchamizni xursand qilishi, shubhasiz. Ayniqsa, Orol dengizi mintaqasida ekotizimni sog'lomlashtirish, yurtimizdagi madaniy meros obyektlarini asrash, mamlakatimizda inson huquqlarini ta'minlash, chegaradosh mamlakatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlari o'rnatish sohasidagi o'zaro hamkorligimiz tahsinga loyiq.

Albatta, 1945-yili tamal toshi qo'yilgan BMTning tashkil etilishi bilan bog'liq tarixiy zaruratdan ko'pchilikning xabari bo'lsa kerak. Birinchi jahon urushidan so'ng, bu singari ijtimoiy talafotlarning oldini olish maqsadida davlatlarning xalqaro uyushmasi — Millatlar ligasi tashkil etiladi. Biroq bir qator sabablarga ko'ra, u dunyo xalqlari umidlarini oqlay olmadi. Natijada Ikkinchi jahon urushi arafasida bu tashkilot o'z faoliyatini to'xtatdi. Bu vaqtga kelib, avjiga chiqqan davlatlararo ziddiyatlar oqibatida yana bir jahon urushi boshlanib ketadi. Uning xalqlar va mamlakatlar boshiga solgan jabr-sitamalarini sanab adog'iga yetish qiyin, ular haqida so'zlashning o'zi bir azob.

Ikkinchi jahon urushining odamlar taqdiridagi o'rni to'g'risida ko'p yozgan yozuvchi Chingiz Aytmatov bu haqda shunday mulohaza yuritadi: "E'tibor bersangiz, Ikkinchi jahon urushi har bir asarimda eslanadi. Bu urush faqat biz uchun emas, butun insoniyat uchun o'ta og'ir va dahshatli yo'qotish, xotiradan ketmas fojia bo'lgan. Bu urush odamlarga o'lim bilan ocharchilik olib kelgan desak, uning kasofatini ozaytirgan bo'lamiz. Bu urush o'sha davrdagi odamlarning odob va axloqiga ham tajovuz etib,

asrlardan beri shakllanib kelgan urf-odatlarini, rasm-rusumlariga ham cheksiz ziyon-zahmat yetkazdi".

Shubhasiz, tinçlik — eng muhim ijtimoiy va ma'naviy qadriyat. Ulug' mutafakkir bobomiz Jaloliddin Rumiy "Inson uchun eng zarur narsa nima?" degan savolga "Ozodlik, ozodlik va yana ozodlik", deya javob bergan edi. Agar biz bu narsaga jiddiyroq nazar tashlaydigan bo'lsak, o'sha ozodlikning asosida ham tinçlik tamoyili yotishiga guvoh bo'lamiz. Chunki tinçlik bo'lmas ekan, har qanday ozodlig-u erkinlikning ham bir chaqalik qadr-qimmatini va mohiyatini qolmaydi. Chunki Vatani bu — avvalo ozodlikdir. Urush eng avvalo odamlardagi erkinlik va ozodlikni tortib oladi. Zero, urush hukmidan hech bir xalq, hech bir inson xoli bo'lolmaydi. Shuning uchun ham har bir odam doimo, ayniqsa, tinçlik davrida, tinçlikka intilib yashashi kerak! Butun boshli o'rmondagi yong'in bittagina uchqundan boshlangani kabi, katta-kichik urushlar ham birgina inson ongidagi, ruhiyatidagi yovuzlik bilan boshlanishini unutmashimiz zarur.

Nazarimda, bu narsa insonning tinçlikni qanchalik darajada anglashiga, qadrlashiga bog'liq bo'ladi. To'g'ri, hamma ham u yoki bu darajada tinçlikni anglaydi va unga intilib yashaydi. Masalan, men shu paytgacha tinçlikni ongim, aql-idrokim bilan anglab kelgan ekanman. Endi esa, ya'ni yoshim ellikdan oshgach, uni qalbim va ruhim, qolaversa, butun vujudim bilan his qilaman, anglayman. Ta'kidlash joizki, urush va tinçlik eng muhim ijtimoiy-ma'naviy tushunchalardir! Chunki ular orasidagi muvozanat jamiyatdagi va dunyodagi umumiy ahvolni belgilaydi, ular o'zaro dialektik, ya'ni biri ikkinchisini taqozo qiladigan tushunchalar hisoblanadi. Biz bolaligimizda tinglagan ertaklardan tortib, "Ufq", "Shinelli yillar", "Urush va tinçlik" kabi jiddiy asar-epopeyalargacha tinçlikka intilish g'oyasi bilan sug'orilgan. Esimda, bolaligimda taniqli chex jurnalisti Luis Fuchikning Ikkinchi jahon urushi haqidagi asarlarini katta hayajon bilan o'qigan edim. Hozir ularning tafsilotlari esimda yo'q. Biroq undagi "Odamlar, ogoh bo'ling!" degan yoniq hayqiriq hamon yodimda. Demak, tinçlikka tashnalik tuyg'usi hali urushning nimaligini yaxshi anglab yetmagan yosh inson qalbidan ham jo'sh urar ekan-da?! Bu narsa ba'zi bir ijtimoiy kechinmalar, aytaylik, tinçlikda yashash istagining ham irsiy yo'l bilan ajdodlardan avlodlarga o'tishini anglatadi. Yovuzlik ham xuddi insonparvarlik va mehr kabi insonlarning qon-qoniga singib ketgan. Axloq, qonun, vijdon, burch, uyat, mas'uliyat kabi ezgu tuyg'ular uning har daqiqada o'zini namoyon qilishiga monelik qiladi xolos.

Gap BMT — eng katta xalqaro tashkilot haqida borar ekan, o'z-o'zidan "yer yuzida nechta davlat bor?" degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu savol o'zimni ham qiziqtirgani uchun javob izlab bir qator kitoblarni varaqlab chiqdim. Ba'zi siyosiy adabiyotlarda 200 ta atrofida mamlakatlar borligi aytilsa-da, jug'rofiyaga oid



nashrlarda 220 soni qayd etiladi. O'zbekiston Milliy universiteti professori, faylasuf olim Anvar Abdusametov esa o'zining dinlar tarixiga bag'ishlangan ma'ruzasida mavjud davlatlar miqdorini 254 ta, deb ta'kidlaydi. Shu o'rinda BMT ga 193 ta davlat a'zo ekanligini ta'kidlab o'tish o'rinli bo'ladi. Nima bo'lgan taqdirda ham millatlar va mamlakatlar soni o'rtasida keskin nomutanosiblik mavjud, ya'ni millatlarning mutlaq ko'pchiligi o'zlarining Milliy davlatlariga ega emaslar. Chunki dunyoda 4 000 atrofida millat mavjud. Demak, biz o'zbeklar omadlimiz, o'zimizning mustaqil mamlakatimiz va milliy davlatchiligimiz mavjud.

Mulohazalarim avvalida BMTni tashkil etishdan maqsad — dunyoda tinçlikni ta'minlash ekanligini ta'kidlagan edim. Xo'sh, tashkilot insoniyat umidini oqlay oldimi? Bu savolga qaysidir ma'noda tasdiq javobini berish mumkin: dunyoda yana bir jahon urushi sodir bo'lmadi, biroq barqaror tinçlik ham o'rnatilmadi. Keyingi 80 yil ichida jahon urushi boshlanib ketish xavfi bir necha marta yuzaga keldi. Bunga Karib inqirozi, Berlin davori atrofidagi ziddiyatlar, shuningdek, Yaqin Sharq mintaqasidagi mojarolarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ayni kunlarda Ukraina atrofida sodir bo'layotgan harbiy-siyosiy mazmundagi kelishmovchiliklar buning yana bir misoli bo'la oladi.

Esimda, o'tgan asrning so'nggi ikki o'n yilligida ham xalqaro, mintaqaviy va davlatlararo mojarolarni hal etishda BMTning o'rni aniq sezilib turar, uning ovozigacha barcha davlatlar quloq tutar edi. Hozir esa unday emas. Masalan, Ukraina va Afg'oniston inqirozlari fonida bu tashkilot umuman ko'rinmay qolyapti. Shunday bir tarixiy, tahlilki zamonda tashkilotni isloh qilishga qaratilgan taklif va chaqiriqlar har bir insonni o'ylantirishi tabiiy. Bu takliflar orasida BMT Xavfsizlik Kengashidagi a'zolar sonini oshirishdan tortib, uni butunlay qayta tashkil etishgacha bo'lganlari ham bor. Mavzu doirasidagi so'nggi xulosalarimni aytishdan avval o'zim muhim deb hisoblagan ikkita fikr bilan o'rtoqlashmoqchi edim. Ularning birinchisi ulug' gumanist olim, tinçlik bo'yicha Nobel mukofoti sohibi Andrey Saxarovga tegishli. Olim o'zining "Xotiralar" kitobida dunyo taqdiri haqida fikr yuritir ekan, umuminsoniy tinçlik inson huquqlaridan boshlanadi, degan muhim bir g'oyani ilgari suradi. Agar chuqurroq o'ylab ko'rsak, muallifning naqadar haq ekanligiga ishonch hosil qilish qiyin emas.

Ikkinchi fikr 2015-yil sanasi bilan bog'liq bo'lib, aynan shu yili dunyo olimlari ikkita ulkan ilmiy yangilikni omma e'tiboriga havola etishdi. Ulardan biri borliqni egallagan gravitatsiya maydonini tashkil etgan graviton zarrachalarining tajriba yo'li bilan topilishi bo'lsa, ikkinchisi esa, genetik olimlar tomonidan butun insoniyatning qachonlardir bir ota-onadan tarqalganligining kashf etilishi bo'ldi. Bu esa insoniyatning o'z-o'ziga, jumladan, urush va tinçlik masalasiga o'zgacha nigo bilan qarash imkonini berdi. Urush maydonidagi ikki taraf insonlari, millati va irqidan qat'i nazar, bir-birlariga qarindosh, birodar(!) ekanliklarini anglashining o'ziyoq bu kurashda g'oliblar bo'lmasligini anglatga, ajab emas.

Shunday ekan, nahotki odamzod o'ziga beshik bo'lgan makon — Yer sayyorasida nafaqat o'zi, balki kelgusi nasllari uchun ham tinçlikni ta'minlay olmasa?! Nima bo'lganda ham BMT insoniyat tomonidan dunyoda tinçlikni o'rnatish maqsadida barpo etilgan o'ta noyob tuzulma — institut hisoblanadi. Uni saqlab qolish zarur. Qolaversa, BMTning isloh etilishidan ham umidvormiz. Toki insoniyat barqaror tinçlik va farovonlikka erishsin!

**Chori NASRIDDINOV,  
ChOTQMBYU dotsenti**



# МИЛЛАТЛАРАРО ҲАМЖИҲАТЛИКНИНГ МУСТАҲКАМ ПОЙДЕВОРИ

Ўзбекистон Республикаси ўз мустақиллигига эришган дастлабки кунлардан бошлаб давлат сиёсатининг асосини ташкил этган бош ғоя – миллатлараро тотувлик ва динлараро бағрикенглик ғоясининг ҳаётга татбиқ этилиши натижасида, республикадаги барча миллат ва элатларнинг ривожланишига алоҳида эътибор қаратди.

Юртимизда миллатлараро ва конфессиялараро тотувликни ривожлантириш учун барча ҳуқуқий асослар ва зарур шарт-шароитлар яратилди. Бағрикенглик маданиятини тарбиялаш ва янада мустаҳкамлаш давлатимиз сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланди. Бунда кўп миллатли жамиятимиз фуқаролари онгида ҳақиқий ватанпарварлик, халқпарварлик ва инсонпарварлик туйғусини шакллантириш бу соҳадаги ишларнинг муҳим йўналиши бўлди. Миллатлараро дўстлик ва ҳамкорлик йўли билан маданий, маърифий ва маънавий юксалиш сари шахдам қадамлар ташланди. Азиз ва муқаддас бўлган жонажон юртимизда турли миллат вакиллари тинч ва тотув истиқомат қилаётганлиги, ягона Ватан ташунчасининг қалбларда ҳукмрон эканлиги мамлакатимиз мустақиллигининг, тараққиётининг муҳим гарови бўлиб хизмат қилмоқда.

Ҳақиқатда ҳам Ўзбекистонда жаннатмакон бир ўлкада миллатлараро тотувлик ва динлараро бағрикенглик тамойилларини қарор топтириш, миллатларнинг ҳар томонлама раванқ топишига, уларнинг миллий қадриятларини сақлаб қолишга, урф-одатлари ва анъаналарининг ривожланишига барча шарт-шароитлар яратиш берилганлигини мамнуният билан қайд этишимиз керак.

Республикамиз Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан қабул қилинган 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси жамиятда миллатлараро тотувлик ва динлараро бағрикенглик муҳитини мустаҳкамлаш борасидаги ишларимизга янада кенг йўл очиб беради, имкониятларимизни янада кенгайтиради, миллий маданий марказларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини янада такомиллаштиради. Турли миллат ёшлари учун қўшимча қулай шарт-шароитлар яратиш, уларда фуқаролик бурчини англаш, ватанпарварлик, бағрикенгликка асосланган миллатлараро муомала маданиятини юксалтириш, хорижий тилларда фаолият юритаётган ҳамда миллатлараро муносабатлар соҳасида давлат сиёсатини ёритаётган оммавий ахборот воситаларини давлат томонидан қўшимча қўллаб-қувватлаш чораларини кўриш ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқаларини ривожлантириш мақсадида дўстлик жамиятлари фаолиятини такомиллаштириш тўғрисидаги кўрсатмалари бу борадаги ишларимизни тобора яхшилаб бориш йўлларини

очиб беради. Тараққиёт стратегияси юртимизда истиқомат қилаётган турли миллат ва элат вакиллари тили, маданияти, урф-одатлари ва анъаналарини сақлаб қолиш ҳамда ривожлантиришга қаратилган бўлиб, кўп миллатли халқимизнинг саъй-ҳаракатларини олижаноб ғоя – мамлакатимизни барқарор ривожлантириш, миллатлараро тотувликни мустаҳкамлаш, кучли ва адолатли фуқаролик жамиятини ва демократик ҳуқуқий давлатни шакллантириш ғояси атрофида бирлаштиришга хизмат қилади.

Юртимиз мустақилликка эришгач, миллий ва диний қадриятларни тиклаш асосида ҳар томонлама комил инсонни вояга етказиш, ёшларимизни мустақил фикрли, юрт тинчлиги ва халқ фаровонлигига ўз ҳиссасини қўшадиган, Ватани ва халқига содиқ, маънавияти юксак инсон қилиб тарбиялаш давлатимиз сиёсатининг устувор вазифаларидан бири сифатида белгиланди. Таъкидлаш жоизки, бугунги кунда Марказий Осиё минтақаси, хусусан, Ўзбекистондаги барқарорликка таҳдид солаётган диний экстремизм ва терроризмга қарши курашиш, доимо огоҳ ва ҳушёр бўлиш алоҳида аҳамият касб этмоқда. Айни вақтда, ғоявий йўналишдаги таҳдидлардан бири «оммавий маданият» деб номланувчи иллат бўлиб, у ўзгичмизни, диний ва миллий қадриятларни, халқимизга хос ҳаё, андиша, ифбат каби фазилатларни ҳамда асрлар давомида шаклланган анъаналаримизни йўққа чиқаришга ҳаракат қилади.

Мамлакатимизда энг йирик миллий маданий марказлардан бири бўлган Қозоқ миллий маданий маркази ҳам юртимизда миллатлараро тотувлик ва динлараро бағрикенглик муҳитини мустаҳкамлашда самарали фаолият кўрсатиб, жамиятимизда этник ўзига хосликни ривожлантириш ва миллатлараро муносабатларни янада уйғунлаштириш ишига мана 30 йилдирки (1992 йилда ташкил этилган) ўзининг салмоқли ҳиссасини қўшиб келмоқда. У миллатлараро тотувликни мустаҳкамлаш, қардош ўзбек ва қозоқ халқлари ўртасидаги абадий дўстлик ва яқин ҳамкорлик ришталарини янада ривожлантириш, халқларимиз ўртасидаги адабий-маданий, маънавий-маърифий алоқаларни тобора ривожлантириб бориш мақсадида турли кенг кўламли тадбирлар ўтказиб, миллатлар ўртасида ҳамжиҳатликни мустаҳкамлашга, ёшларни Ватанга муҳаббат ва садоқат руҳида тарбиялашга қатта эътибор қаратмоқда. Марказ Ўзбекистон Касаба уюшмалари федерацияси билан ҳамкорликда улғў ўзбек шоири Алишер Навоийнинг 580 йиллиги муносабати билан «Фарҳод ва Ширин» асарини ҳамда «Ўзбек ва

Қозоқ дўстлик жамияти» билан биргаликда эса «Адиблар хиёбони» очишти арасида атоқли ўзбек шоирлари Абдулла Орипов ва Эркин Воҳидовнинг «Ўлылар тағлымы» (Улуғлар таълимоти) номли асарларини қозоқ тилида нашрдан чиқарди ва ҳозирги кунда бу китоблар республикамиздаги қозоқ мактабларига тарқатилди.

Амалга ошираётган бу чора-тадбирлар халқларимиз ўртасидаги эзгу қадриятларимизни тараннум эттиришга, тил ва маданиятимизни, миллий урф-одатларимизни тарғиб қилишга ҳамда икки қардош – ўзбек – қозоқ халқлари ҳаётидаги атоқли саналарга бағишланган бўлиб, асосан Наврўз ва Мустақиллик куни, дўстлик байрами томошалари, илмий-амалий конференциялар, фестиваллар, адабий учрашувлар, мушоиралар, айтишувлар, ёшлар кечалари ва давра суҳбатлари шаклида олиб борилади. Маданий марказимиз жорий йилда ҳам миллатлараро тотувлик, бағрикенглик, ўзаро дўстлик ва яқин ҳамкорликни янада ривожлантириш масалаларига бағишланган тадбирий чораларни бутун жаҳонга кенг тарқалган пандемия билан боғлиқ вазиятдан келиб чиқиб

амалга ошириш чора-тадбирларини ишлаб чиқди. Улар орасида кенг қамровли адабий-маданий тадбирлар, хусусан, илмий-амалий конференциялар, китобхонлар учрашувлари ва бошқалар бор. Шунингдек, 2022 йил давомида Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг 31 йиллигини, маданий марказимизнинг 30 йиллигини кутиб олиш ва кенг нишонлашга қаратилган комплекс чора-тадбирлар лойиҳаси ҳам ишлаб чиқилмоқда.

Биз турфа маданият ва қадриятлар гуллаб-яшнаётган мамлакатимизда сиёсий барқарорлик ва диний бағрикенглик, миллатлараро тотувлик ва ҳамжиҳатликнинг тобора мустаҳкамланиб ва уйғунлашиб боришига, қардош ўзбек-қозоқ халқлари ўртасидаги абадий дўстлик ва изчил ҳамкорликни янада мустаҳкамлашига, халқларимиз ўртасидаги адабий, маданий ва маърифий алоқаларнинг янада раванқ топишига ўзимизнинг муносиб ҳиссамизни қўшаверамиз, деб ишонч билдирамиз.

**Серикбой УСЕНОВ,**  
Ўзбекистон қозоқ миллий маданий маркази раиси

## #Sayyor qabul

# MUROJAATLAR O'Z YECHIMINI TOPDI

2022-yil chaqiruv mavsumi arafasida Chirchiq harbiy prokuraturasi tomonidan Mudofaa vazirligi Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi bilan hamkorlikda Chirchiq shahrida joylashgan kimyogarlار saroyida ommaviy sayyor qabul o'tkazildi.

Unda harbiy xizmatchilar, hududiy butlash komissiyasi, tibbiy komissiya shifokorlari, chaqiriluvchilar, ularning oila a'zolari hamda Temurbeklar maktabi va oliy harbiy bilim yurtlariga o'qishga nazorat istagi bor 200 dan ortiq fuqaro ishtirok etdi.

O'tkazilgan sayyor qabulda 40 ta murojaat qabul qilinib, 15 tasi joyida ijobiy hal etildi, 24 ta murojaat bo'yicha tushuntirish berildi hamda bitta murojaat nazoratga olinib, ko'rib chiqish uchun boshqa muassasaga yuborilishi ta'minlandi.



**Adliya mayori Sultanmurad KALENDEROV,**  
Chirchiq harbiy prokurorining yordamchisi



“  
Asl kasbim  
pedagog bo‘lganligi  
sabablimi yoki  
oilaviy muhit  
ta’siridanmi  
kitob mutolaa  
qilishni, gazeta  
va jurnallardagi  
maqola hamda  
ocherklarni  
o‘qishni xush  
ko‘raman.  
”

Bundan ancha yil oldin gazetalardan birida chop etilgan “Men rangimni yomon ko‘raman” nomli esseni o‘qib qolgandim. XIX asrning yirik kapitalistlari qatoridan joy olgan Mayk Yudvardning bolalik chog‘lari haqida so‘zlovchi bu kichkinagina asarni o‘qib, to‘lqinlanganim yodimda. Yaqinda o‘sha gazeta yana qo‘limga tushib qoldi va men unga qayta ko‘z yugurtirdim. 12 yoshlarida ota-onasi bilan birgalikda inglizlarga sotib yuborilgan bu insonning bolalik xotiralari yana e’tiborimni jalb qildi. O‘ylanib qoldim: hozir ham bu azoblarga giriftor bo‘layotgan norasidalar bormikan?

Internetni titkilagan bo‘ldim. Va topdim ham. BBC tomonidan suratga olingan “Sovremennoye rabstvo” nomli hujjatli film. Afrika qabilalaridan sotib olib kelingan murg‘ak bolakaylar o‘z xo‘jayinlari yoki egalari uchun “Volva” ko‘lida quyosh chiqqandan to qosh qorayuncha baliq ovlashga majburlar. Ularning mungli

# INSON NOMIGA DOG‘ TUSHIRMANG!

ko‘zlariga qarab ezilib ketasan, kishi. Ajablanarlisi, bu bolalar begona odamlar emas, balki o‘z yaqinlari (onasi, xolasi yoki tog‘alari) tomonidan sotib yuborilgan (ochlik va yetishmovchilik oqibatida). Bir tomondan bechora bolakaylarga ichim achigan bo‘lsa, boshqa tomondan shunday tinch-osoyshta, to‘kin-sochin diyorda umrguzaronlik qilayotganimizga shukronalar keltirdim.

Quldorlik, ya’ni odam savdosining qurbonlari faqat bolalar emas, balki yoshlar va o‘rta yoshdagi insonlarni ham tashkil etadi. Bunday ayanchli holatlar faqat Afrikada emas, balki dunyoning boshqa to‘plab mamlakatlarida ham uchraydi. Shu jumladan, bizning respublikamizda ham. Shunday farovon Vatanda yashayotgan bo‘lsak-da, oramizda bunday jirkanch illatning sodir bo‘lishi odamning ko‘nglini xira qiladi, albatta.

Insonlar nega bu jinoyatga qo‘l uradi? Ularni bu tubanlikni sodir etishga nima undaydi?

Bu kabi savollarga menda javob yo‘q. Lekin BMT tomonidan berilgan ma’lumotlarni ko‘rib, javob topganday bo‘ldim. Jahon “qora bozori”da odam savdosi yashirin qurol-yarog‘lar sotish, narkotiklar savdosidan keyin uchinchi o‘rinda turadigan jinoyatlardan biri ekan. Bitta qulning bahosi 40 ming AQSh dollari bo‘lganidan keyin nafsi buzuq odamlar o‘sha qing‘ir yo‘lga osongina o‘tib ketib, o‘zgarlar mehnati evaziga harom boyluk orttirish yo‘liga o‘tib olishadi. Demak, jinoyatchilarni bu yo‘lga faqat va faqat o‘z nafslari chorlaydi.

Davlatimiz tomonidan odam savdosiga qarshi bir qator qonunlar chiqarilgan. Mamlakatimizda tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish, yurtdoshlarimizning xorijda kafolatli va xavfsiz vaqtinchalik mehnat faoliyatlarini amalga oshirish uchun yordam ko‘rsatishga e’tibor kuchaytirilgan. Senatda “Odam savdosiga qarshi kurash” komissiyasi mavjud. Shuncha taqiqlarga qaramay bu jirkanch illat tag-tomiri bilan yo‘q bo‘lib ketmayapti. Hatto bunga bilib-bilmay aralashib qolganlar ham uchrab turadi. Masalan, Turkiya mamlakatida mehnat qilayotgan S. ismli yurtdoshimiz bilib-bilmay bu jinoyatni sodir qilib qo‘yadi. Bunga uning birovning hayotiga loqaydligi ham sabab bo‘ladi, menimcha. Chunki o‘sha S. ismli vatandoshimiz o‘z tanishi bo‘lgan bir qizga ish topib berishda yordam berish uchun G. ismli ayolning telefon raqamini beradi. Shunday qilib A. ismli qiz yomon odamlar qo‘liga tushib qoladi. Aslida bu jabrlangan qiz onasi reanimatsiyada yotganini aytib, ish topib berishini yalinib so‘ragan bo‘ladi.

G. ismli ayolning shaxsini yaxshi surishtirmasdan (o‘sha qizning qistovi bilan va unga rahmi kelib) u qizning roziligi bilan ayolning telefon raqamini beradi. S. ismli yurtdoshimiz kimgadir yordam qo‘lini cho‘zaman, deb o‘zi bilmagan holda jinoyatga qo‘l uradi. S.ga vositachilik qilgani uchun, degan ayblov qo‘yilib, tegishli bandlar asosida chora ko‘riladi. Ko‘rdingizmi, inson qiyin ahvolda qolganiga ko‘mak beraman, deb ham kechirib bo‘lmas xato qilib qo‘yishi mumkin ekan. Bundan xulosa shuki, xoh

xorijda, xoh o‘z Vatanida bo‘lsin, ehtiyot bo‘lish lozim.

Lekin odam savdosiga bilib turib ham noqonuniy boyluk orttirish ilinjida jinoyat yo‘liga o‘tadiganlar ko‘plab topiladi va ularning ichida ayol kishilarning borligi ayanchli holat. Chunki qora kursida o‘tirgan u ayollar kimningdir opasi, singlisi yoki onasi bo‘lishi mumkin. Va bu jirkanch jinoyat ularning zotiga qora tamg‘a bosadi, isnod keltiradi. To‘maris, Nodirabegim, Bibixonim kabi buyuk ayollar chiqqan zaminda to‘g‘ri yo‘ldan adashgan bunday ayollarning borligi or-nomusni, sha’nimizni yerga uradi.

Bu illatni yo‘qotish uchun faqat hushyorlikka chaqiribgina erishib bo‘lmaydi. Qadimdan ma’lum, bilimsizlik yomon oqibatlarga olib keladi. Shuning uchun aholining huquqiy bilimlarini ham oshirish lozim. Shunda sodda kishilar odam o‘g‘rilari, erk o‘g‘rilari qo‘lida xo‘rlanmaydi.

Barcha xorijda ishlamoqchi bo‘lgan yoshlarga avvalo o‘zimizda mehnat qilishga chaqiraman. Axir “Uzoqning bug‘doyidan yaqinning arpasi yaxshi”, degan gap bejiz aytilmagan. Har kim bilim olish va mehnat qilish huquqiga ega. Chet elda ishlash orzusi o‘ta kuchli bo‘lgan yoshlarimizga esa davlat mehnat birjalariga murojaat qilib, ish izlashni, ya’ni xorijga faqat qonuniy yo‘l orqali ketishlarini maslahat berib qolardim. Chunki bu – eng to‘g‘ri yo‘l.

Otajon MATNIYOZOV,  
Yoshlar ishlari agentligi  
Bog‘ot tumani bo‘limi boshlig‘i

## #O‘quv-uslubiy yig‘in

# МАЪНАВИЙ ХАЗИНА СОҲИБАЛАРИ

**Бугун мамлакатимизда хотин-қизларни  
эъозлаш, уларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини  
таъминлаш, оила, оналик ва болаликни  
ҳимоя қилиш давлат сиёсатининг устувор  
йўналишларидан бирига айланган.**

Бу борада амалга оширилаётган тизимли ишлар доирасида Давлат хавфсизлик хизмати Чегара қўшинлари қўмондонлигида ўтказилган хотин-қизлар ва ҳарбий хизматчиларнинг оила аъзолари билан ишлаш бўйича мутахассислар иштирокидаги 4 кунлик ўқув-услубий йиғин ҳам ҳарбий жамоалар ва оилаларда ахлоқий-руҳий муҳитни янада мустаҳкамлаш, уларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, ҳарбий оилаларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, бўш вақтларини мазмунли ташкил қилиб, соғлом турмуш тарзини тарғиб этишга йўналтирилгани билан аҳамиятли бўлди.

Ўқув-услубий йиғин режасига кўра, иштирокчилар билан тегишли мавзуларда Республика Маънавият ва маърифат маркази тарғиботчи-

лари ҳамда психолог мутахассислар иштирокида ўтказилган машғулотлар, семинар-тренинг ва мотивацион суҳбатлар давомида қатнашчиларнинг ҳарбий оилалар билан ишлаш кўникмалари янада оширилди.

– Бу семинарни ақл витамини деб ҳисоблайман, – дейди Республика Маънавият ва маърифат маркази тарғиботчиси, халқаро тоифадаги эксперт Жамила Шермухамедова. – Чунки интерфаол усулдаги машғулотларни ўтказиш жараёнида шунга гувоҳ бўлдимки, қатнашчи қизларимиз жуда билимли, зукко ва серғайрат. Ўзи шундай бўлмоғи ҳам керак. Ахир улар оилалар билан ишлашади. Хотин-қизлар ва оилалар билан ишлайдиган аёлларимиз жуда катта маънавий хазина соҳибалари бўлишлари керак. Аминманки,

шу 4 кунлик ўқув-услубий йиғин давомида иштирокчилар ўзлари учун тўрт йиллик маълумотни оладилар ва келгусида ҳар қандай ҳарбий оиланинг бахту саодати, кадр-қиммати, тинчлигию хотиржамлиги йўлида сафарбар этадилар.

Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги ҳузуридаги «Маҳалла ва оила» илмий тадқиқот институти мутахассислари иштирокида ўтказилган машғулотлар давомида эса оила бу – меҳр ва бахт қўрғони экани, оила бор экан, фарзанд деган бебаҳо неъмат, инсоний кадр-қиммат ва маънавият борлиги, оилавий бахт бу – энг улуғ саодат экани хусусида тўхталиб ўтилди.


– Ушбу тадбирга Фарғона вилоятидан келганман, – дейди кичик сержант Шаҳло Тўхтасинова. – Таъкидлаш керакки, бугун жамиятимизда инсон қадрига, унинг бахтли ҳаёт кечирishiга катта эътибор қаратилмоқда. Хусусан, аёлларнинг ҳам жамиятда ўз ўрнини эгаллаши, ҳаётдан рози бўлиб, мамнун яшашига кенг аҳамият берилляпти. Ўтказилган машғулотлар давомида ҳам айтиш мумкин эди.

Кўп жиҳатларни ўргандик, тажриба алмашиб, касбий малакамизни янада оширишга муваффақ бўлдик.

Йиғин давомида иштирокчилар учун маданий ҳордиқ тадбирлари ҳам ташкил этилиб, қатнашчилар Ўзбек Миллий академик драма театрида сахналаштирилган «Алишер Навоий» спектаклини томоша қилдилар.

Хулоса ўрнида қайд этиш лозимки, малакали профессор-ўқитувчилар ва экспертлар иштирокида ўтказилган ўқув-услубий йиғин Чегара қўшинларидаги хотин-қизлар ва ҳарбий хизматчиларнинг оила аъзолари билан ишлаш бўйича мутахассисларнинг келгусидаги ишларини мувофиқлаштиришга ҳамда уларнинг фаолият самарадорлигини янада оширишга хизмат қилади.

Майор Фариди БОБОЖОНОВА  
ДХХ Чегара қўшинлари







# СЎЗ — ЭНГ БУЮК МЎЪЖИЗА

“**Асли мўъжиза бўлмаган нарсанинг ўзи йўқ. Шундай бўлса-да, Сўз уларнинг энг аъло-сидир. Қуръони каримнинг ўзбек тилидаги маъно таржималарида бир ўринда Сўз азобни ифодалабди!**”

Ўзбек матбуотининг ойдинларидан Фармон Тошев сўз айтишни саодат дея эътироф этгандилар. Бахтни қаранги, кўплар қаторида менга ҳам ана шу саодат насиб этди. Қарийб йигирма йилки, мамлакат Қуролли Кучларининг садоқатли йўлдоши — «Vatanparvar» газетаси қалам аҳлларининг сафидаман. Менда ҳеч қандай рутба йўқ, меҳр тўла қалбим ва қаламим бор.

Жорий йилда «Vatanparvar» газетасининг ташкил этилганига ҳам 30 йил тўлади. Унинг ҳам шарафли тарихи бор. Бир неча йиллик фаолиятимдан сўнг бугун мазкур газета ва унга меҳнати сингган устозлар ҳақида Сўз айтишга ўзимни маънавий ҳақли деб биламан. Газетанинг тарихи ҳақида сўзлаш... рости, кўлимдан келмайди. Бу иш билан тадқиқотчилар шуғуллангани маъқул. Ҳар бир газета жамият ҳаётининг ойнаси бўлишга арзирлидир.

...Эндигина иш бошлаган кезларим. Ҳали ёлчителиб ёзган бир мақолам ҳам йўқ. Негадир уч-тўрт киши йиғилган жойда Худойназар ака деган инсон кўп тилга олинарди. Устозларимиздан Ўзбекистонда хизмат кўрсатган журналист Абдураззоқ Обрўев шундай деган эдилар: «Сиз ишга жуда осон қабул қилиндингиз, ҳозир Худойназар ака бу ерда бўлганларида, уларнинг имтиҳонидан ўтармидингиз, йўқми?»

«Менга ишонилмаяпти, — хаёлимдан шундай ўй ўтди. — Ростдан ҳам ўтолмасмидим? Утар эдим! Аммо муҳбирликка имтиҳон билан қабул қиладиган бу одам ким экан-а? Шун-

ча топширган имтиҳонларим кам-дек...» Биласизми, балки, бу ўйлар тезлик билан ёдимдан ҳам кўтарилиши мумкин эди. Агар Худойназар аканинг имтиҳони ҳақида гапирган киши битта бўлганида ёки иккита, Азимбек Усмонов, Зулфия Юнусова, Хайритдин Зайнилов... Шунча гапдан кейин ҳам у инсоннинг кимлиги билан қизиқмай кўринг-чи?!

Истеъфодаги подполковник Худойназар Жуманазаров... Бугун у киши орамизда йўқ. «Vatanparvar» газетаси тарихида фидокор ижодкорнинг муносиб хизматлари бор. Сафдошлари, ҳамкасблари уни қаттиққўл, талабчан, интизомли, Сўзнинг фидойиси деб хотирлайдилар.

Ўзбекистон ҳаётида юз берган улуғ ўзгариш дастлабки йиллар унинг номида акс этди. «Vatanparvar» — «Патриот»нинг аксарият мақолалари рус тилида эълон қилинган. Мамлакат Қуролли Кучларининг кўп минг нусхада чиқадиган газетаси фидойи ижодкорлар саъй-ҳаракатлари билан миллий қиёфа касб этди. Бунда, ҳеч шубҳасиз, Худойназар Жуманазаровнинг салмоқли ҳиссаси бор.

Ўша пайтлари латифанамо бир гап юрарди. Бошқотирмалар устаси Фозилжон Ориповни биласиз, албатта. Айтишларича, унинг бошқотирмаларидан бирида шундай савол қўйилган экан: «Номи ўзбекча, мақолалари русча чиқадиган газета?» Нима бўлганда ҳам бу савол-бошқотирма газетада республиканинг таниқли ижодкорларидан иборат кучли жамоанинг шаклланишига туртки бўлди. Юксак ватанпарварлик руҳи билан суғорилган тарихий мавзудаги мақолалар, шахидларимизга бағишланган эсселар, ҳикоялар муаллифи, камтарин инсон истеъфодаги подполковник Азимбек Усмонов, санокли пародиячилардан бири, ҳажвий асарлари билан эътиборга тушган истеъфодаги подполковник Абдураззоқ Обрўев, шеърятни журналистика билан алмаштирган истеъфодаги полковник Алижон Сафаров... Улар «Vatanparvar»ни Худойназар Жуманазаровнинг даъвати билан танладилар ва ўзбек ҳарбий матбуотида шарафли из қолдирдилар. Қизиғи, устозга улар сингари давлат мукофотлари ва унвонларига сазовор бўлиш, бош муҳаррирлик насиб этмади. Лекин ҳамкасблари ютуқларидан самимий қувонгани ҳам бор гап.

Уларнинг ҳар бири ҳақида яна тўхталамиз. Бугун эса фидойи журналистни хотирлаймиз.

### Муҳайё Маҳкамова, котибият муҳбири:

— Ҳақиқат улар учун ҳамма нарсадан устун эди. Иш бор жойда муаммо ва тортишувлар бўлиши табиий. Кимнингдир эътиборсизлиги, интизомсизлиги, сўзни увол қилиб ишлатганига жим қараб туролмасдилар. Газета ишида улар учун юз-хотирчилик деган гап бўлиши мумкин эмасди. Камчиликларни рўй-рост гапирардилар, ҳеч қачон орқаваротдан бировнинг шаънига ёмон сўз айтганларини эшитмадим. Кек сақла-масдилар! Саводхонликда уларнинг олдида тушадигани йўқ эди, нафақат ўзбек, балки рус тилида ҳам. Таҳрир устаси эдилар, ўргатишдан эринмасдилар. Кўп ижодкорлар билан ишлаш насиб этди. Аммо матбуот ишини ҳаёти қадар севадиган ягона инсон сифатида Худойназар Жуманазаровни танидим!

### ОТА

Бир куни ижодий ходимлар йиғинида газетанинг тажрибали муҳбирларидан офицер Ярослав Корука шундай эътироз билдирди: «Жанговар саҳифада оила ҳақида ёзиш... мутлақо керак эмас». Эътироз менга қаратилганини билиб, дарҳол жавоб бердим: «Жангчиға руҳий қувватни энг аввал оиласи беради...»

Ортада қолган кунлар ҳақида ўйласам, ҳар доим суҳбатдошларим — ҳарбий хизматчиларнинг оилалари билан қизиққан эканман. Ўша лаҳзалар Ватан ҳимоячисининг табассумдан ёришиб кетган юзлари... Энг қийин вазиятларда ҳам кўксингга сўнмас ҳарорат бахш этадиган маъво оила, унинг меҳри экан.

Зукко ўқувчи нима демоқчи эканлигимни англади, менимча. Ҳа, ҳа, устознинг оиласи. Ростини, бир нарса дейишим қийин. Рафиқаси ҳақида ҳар доим яхши гаплар эшитганмиз. Муаллима эканлигининг ўзиёқ кўп нарсани англади. Фарзандлари... Улар ҳақида битта гап айта оламан: оталарига муносиб фарзандлар, ҳаммаси.

...Йигитча бир неча кун ўз хаёлларига фарқ бўлиб юрди. Бировга ҳам кўнглини ёра олмади. Ва бир қарорга келди. Кечда ҳамма ором олаётган маҳал у кўлига қоғоз ва қалам олди. Юрагини эзиб ётган ўйларини қоғозга бирма-бир тўқди... Шундай якунлади: «...у бешинчи қават томига чиқди. Том чеккасига келиб, атрофига боқди, ёнида ҳеч ким йўқлигини ҳис қилди. Ва узоқ ўйлаб ўтирмасдан қўлларини икки томонга ёйиб... у бир лаҳза... бир лаҳза парвоз завқини туйди». Сўнги нуқтани қўйиб, ўрнига чўзилди. Уйғонганида офтоб ёйилиб кетган эди. Кўзи қоғозларига тушди. Кимдир сўнги қаторларни ўчириб, шундай ёзибди: «Йигитча бешинчи қават томига чиқиб, бир зум ўйга ботди. Кўз олдида уни жондан ортиқ севадиган ота-онаси, ака-укалари келди. Бирдан уларни ташлаб кетолмаслигини ҳис қилди ва қароридан қайтди...»

Бу ёзувни таниди. Елкасидан тоғ ағдарилгандек енгил тортиди. Отаси... Ҳа, устоз ана шундай Ота эди! Мураккаб ва масъулиятли хизматидан ортиб, тунда бедор ўғлининг безовта қалбига қулоқ тута олган, назокат билан ечим топган, ҳамиша ёнида эканлигини, унга суяниш мумкинлигини англаган Ота эҳтиромга муносибдир.

### ЎГИЛ

Бугун «Vatanparvar»чилар сафида устознинг ўғли подполковник Тўлқин Жуманазаров ҳам хизмат қияпти. Келинг, устоз ҳақида фарзандидан эшитайлик.

— Бу йўлни акам кўрсатганлар. Нега дадамни ака деяпман? У киши асли тошовузлик (*Туркменистон Республикаси*) эди. У ердаги ўзбекларнинг шевасида отани ака дейишади. Биз ёшлиқдан шундай чақиришга ўрганиб қолганмиз. Ойим эса Чимкент вилоятидан (*Қозоғистон Республикаси*). Улар Тошкентда ўқиб юрган пайти танишиб, турмуш қуришган. Тақдирки, шу азим шаҳарни ўзларига Ватан қилишди. Шунинг учун ҳам синфдошлар, курсдошлар ва бошқалар мендан: «Қаерликсан?» деб қизиқишганда, «Тошкентда туғилганман», дейман. Акам ютуқларимдан севинганида, «Буларнинг бариси сиз туфайли», десам, «Агар ўзингда бўлмаса, ёзишни барибир ўргата олмасдим», дердилар. У киши матбуот иши учун яралгандек эди. Мендан фойдаланмаяпсизлар, дердилар. Ёшлиқ гўрлик экан, ўша лаҳзалар қадрини кеч англадим. Мудофаа вазирлигида хизматни давом эттирганларидан кейин, «Муҳофаза+» журнали ва «Вазият» газетаси бирлашган таҳририяти бош муҳаррири вазифасида ишлаб юрганларида ҳам «Vatanparvar»ни кузатиб борардилар, шу даражада меҳрлари баланд эди-да! Ёдимда, битта мақолам ёққанида, бош муҳарриримизга телефон қилиб, «Ўғлим мақола ёзишда мендан ўзди», дебдилар. Раҳбаримиз ўша мақола учун менга миннатдорчилик билдириб, акамнинг гапларини ҳам етказган. Бундан жуда севинганман.

У киши ҳаётда қўли очик ва мол-дунёга ҳирссиз, ака-укаларига жуда меҳрибон эди. Кичиккина мисол келтираман. Балки, кимгадир ёлғондек туюлар, лекин акам ҳарбий хизматга чақирилишдан олдин пойтахтда икки хонали уйда етти киши яшардик. Биз билан бирга аксарияти бўйдоқ талаба амакиларим, тоғаларим ва бошқалар йиллаб яшаган. Шароитни тасаввур қилаверинг энди. Акам шуларнинг биронтасига уйга ҳатто иккита нон олиб келишга рухсат бермаганлар. Мабодо шундай ҳолат рўй берса ҳам ўша заҳоти ёки ойлик олгач, тийин-тийинигача харажат пулини қайтарарди. Мусофирчиликнинг заҳматини билган одам эди-да. Яқинларидан ёрдамларини аямасдилар. Кейинчалик ҳарбий соҳадаги фаолият бошлангач, уйни кенгайтириш имкони пайдо бўлди. Шунда акам ўзларининг номларидаги (*хусусийлаштирилган*) уйни давлатга топшириб, (!) каттароқ уй олганлар. Ваҳоланки, ўшанда уйни пуллаш ёки бошқанинг номига ўтказишдек вариантлар ҳам бор эди.

Сўнги вақтлар оғир хасталик билан курашдилар. Севимли инсонингни дард енгиб бораётганини кўриш жуда оғир...

### СЎНГСЎЗ ЎРНИДА

Қаҳрамонимиз кейинчалик Мудофаа вазирлигида, хусусан, тарбиявий ишлар йўналишида ҳам ўз ишларини мукамал даражада адо этганларидан хабаримиз бор. Нафақага чиққан ёки айни пайтда турли раҳбарлик лавозимларида ҳарбий хизматни ўтаётган офицерлар орасида Худойназар акани устоз, дея эслайдигани кам эмас. Бу ишлар қанчалик муҳим бўлишига қарамасдан улар севган, ҳаёти мазмуни деб билган газета иши эмасди. Фавқулодда вазиятлар вазирлиги нашрларининг бош муҳаррири вазифасида ишлаган кезлари ҳам бир кичик тадқиқотга арзигулиқдир.

Бугун бир неча йиллар берисида туриб, баъзан ўз-ўзимга савол бераман: «Ўшанда, ишга қабул қилишларидан аввал устоз мени имтиҳон қилсалар, ёзганларимдан кўнгиллари тўлар-миди? Кўнгиллари тўлар эди, дея ишонгим келади.

Инобат ИБРОҲИМОВА,  
«Vatanparvar»



Х. Жуманазаров ҳақидаги телелавҳа («Vatanparvar» кўрсатуви, 2011 йил)





Бугунги кунда ёшлар билан ишлаш, уларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш давлатимиз сиёсати даражасига кўтарилди. Бу борада жойларда ҳарбий-маъмурий секторлар ташкил этилиб, ҳарбий қисмлар билан тизимли ва мақсадли ҳамкорликлар амалга оширилмоқда.

# ҲАРБИЙЛАРИМИЗ КЎЗИДА

лойиҳанинг биринчи қалдирғочлари бўлишганди.

Орадан бир йил ўтиб, 18-30 ёш оралиғидаги юз нафардан иборат маҳаллий ёш 10 кунлик жанговар, спорт мусобақалари, маънавий-маърифий тайёргарлик ҳамда маълум бир касбга йўналтириш бўйича машғулотларга жалб қилинди. Ҳаёт қийинчиликларини енгиш йўлида давлат миқёсидаги имкониятларни қўлга киритган бу ёшлар ота-онаси ҳамда яқинларидан узоқда уларни қандай саргузаштлар ва унутилмас онлар кутиб турганини хаёлларига ҳам келтирмагани аниқ. Чунки махсус автобусларда Жиззах шаҳри марказидан ҳарбий қисмга етиб келганда қайсидир ўқув марказига касбга йўналтириш бўйича ўқишга кетяпмиз деган хаёлда бўлган кўпчилик ёшлар нигоҳидаги ҳайратни англаш қийин эмасди. Сартарошхонада сочларни ҳарбийчасига текислатиб, ҳаммомда ювиниб чиққан йигитларга охори тўкилмаган ҳарбий кийимлар тарқатилганда ҳайратланишлар янада ортди. Узоқ вақт ўстирган «чиройли» сочларидан ёки бугунги кун урфига мос «кўркам» кийимларидан воз кечишни хоҳламаганлар ҳам бўлди. Аммо...


Аммо тиббий кўрик ҳамда гигиеник амалиётдан кейин эгнига ҳарбий кийим кийган ёшлар ҳақиқий маънода чиройли ва кўркам кўринишда сафланишди. Айримлар йўл-йўлакай танишган дўстларига худди биринчи марта кўраётгандек қарашарди. Уларнинг барчаси таниб бўлмас даражада ўзгариб кетганлигига ўзлари ҳам ишонимасди.

Ҳарбий-маъмурий секторларнинг Мудофаа вазирлиги билан ҳамкорлиги натижасида ёшлар ва ҳарбий хизматчилар иштирокида фестиваллар ташкиллаштириш, ҳарбий қисмларга экскурсиялар уюштириш, кўргазмалар ҳамда маданий-маърифий тадбирлар ўтказиш ёш авлодни тарбиялашда ҳар томонлама самара бермоқда. Жиззах вилояти ҳарбий маъмурий сектори ҳамда Марказий ҳарбий округ қўшинлари қўмондонлиги ташаббуси билан «Ёш ватанпарварлар йиғини» лойиҳасининг иккинчи мавсуми юқоридаги фикримизнинг яққол исботидир.

Ўзбекистон ёшлар иттифоқи вилоят кенгаши ва Ёшлар ишлари агентлиги бошқармаси томонидан «Ёшлар дафтари»га киритилган, муқим иш ўрнига эга бўлмаган ҳамда ички ишлар назоратида бўлган ёшлар рўйхати шакллантирилиб, улардан 100 нафари «Ёш ватанпарварлар йиғини» лойиҳасининг иккинчи мавсуми иштирокчисига айланди. Маълумки, 2020 йил февраль ойида Жиззахлик 200 нафар ёш мазкур

Ҳарбий оркестр ижро этган мусиқа садолари остида ҳарбий қисмга етиб келган ёшлар гуруҳларга бўлиниб, майдонда ҳарбийчасига сафланишди. «Ёш ватанпарварлар йиғини»га бағишланган тадбирнинг тантанали очилиш маросимида қатнашган Жиззах вилояти ҳокими Эргаш Салиев ҳамда Марказий ҳарбий округ қўшинлари қўмондони полковник Ойбек Саидов минглаб тенгдошлари орасидан танлаб олинган, ўн кунлик дастур асосида ҳарбийлар сафига қабул қилинган Жиззахлик ёшларни чин дилдан қутладилар. Давлатимиз раҳбари томонидан ёшларга яратиб берилган имкониятларга тўхталиб ўтар эканлар, улардан тўлақонли фойдаланиш янги-янги ютуқлар сари ташланган қадам бўлишини таъкидладилар. Вилоят ҳокими ёшларни тарбиялашда янгича тизим жорий этилгани, айтиш мумкин биринчи мавсум иштирокчилари эришган ютуқлар, йиғин қатнашчиларига бу йил янада кўпроқ имкониятлар яратилганлигини айтиб, йигитларни руҳлантирди. Қўмондон эса йиғин давомида жисмоний, ахлоқий-руҳий жиҳатдан аъло кўрсаткичларга эришган ёшлар округ қўшинларида контракт бўйича хизмат қилишлари мумкинлигини билдирди.

«Ёш ватанпарварлар йиғини» лойиҳаси Жиззахлик ёшлар учун кенг имкониятлар эшигини очиб бераётганини иккинчи мавсум давомида ҳам кўрдик. Улар учун ташкил этилган машҳур санъаткорлар иштирокидаги концерт дастурлари, футбол, миллий кураш, ҳарбий эстафета каби спорт мусобақалари, касбга йўналтирилган ўқув курслари, театр томошалари, таниқли ижодкорлар билан учрашувлар, ЎЗМУ Жиззах филиалининг профессор-ўқитувчилари ва мутахассислари томонидан





Ўтказилган тренинг дарслар. Буларнинг барчаси Арнасой тумани Бахтли маҳалласидан келган Нодирбек Асатуллаев айтганидек, хаёлга келмайдиган, тушга кирмайдиган воқеалар эди. Жиззах вилояти «Ишга марҳамат» мономаркази томонидан ёшларга автоэлектрик, чилангар, двигатель, электромонтаж ва пайвандлаш устаси каби ўнга яқин йўналишда бошланғич билим берилди.

# ШАХТУ

# ШИЖОАТНИ КЎРДИМ...

Йиғин якунида лойиҳада фаол иштирок этган, ўтказилган мусобақалар ғолиб ва совриндорлари муносиб тақдирланди. Касбга йўналтирилган дарсларни аълога ўзлаштирганларга эса имтиёзли кредит олиш имкониятини берувчи сертификатлар топширилиб, ҳар бир иштирокчи ҳақида тўпланган маълумотлар асосида касб-ҳунар ҳамда ёшлар марказида ташкил этилган тўғаракларга йўлланмалар берилди. «Ёш ватанпарварлар йиғини» лойиҳасининг иккинчи мавсуми бўйича эришилган натижалардан хулоса қиладиган бўлсак, тадбир ташкилотчилари яна 100 нафар ёшнинг келажакка бўлган ишончини оширишга муносиб ҳисса қўша олдилар. Бу лойиҳада камтарона хизматларини аямаган ҳарбийларимиз эса уларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялашдек эзгу ишда ҳамisha бел боғлаб хизмат қила олишларини яна бир бор амалда исботлашди.

**Майор Умид ДЕДЕБОЕВ, ҳарбий қисм командирининг тарбиявий ва мафкуравий ишлар бўйича ўринбосари:**

– «Ёшлар дафтари»га киритилган йигитлар билан ишлаш учун бириктирилган ҳарбий хизматчилардан уларга нисбатан умуман бошқача ёндашув талаб этилади. Бу борада офицер ва сержантларимиз ёшлар билан ўтган йилги йиғин давомида орттирилган тажрибалардан келиб чиқиб, иш олиб боришди. Таъкидлаш жоизки, маънавий-маърифий дарсларга катта эътибор қаратдик. Маънавияти ва дунёқараши кенг ёшларни бу каби қисқа муддатли йиғинларда улар ҳам ютуқларга эриша олишига ишонтириш жуда муҳим эди. Шудан келиб чиққан ҳолда барчамиз ўз олдимизга қўйилган вазифаларни тўлақонли бажардик дея ишонч билан айта оламан...

**Нодирбек АСАТУЛЛАЕВ, Арнасой тумани Бахтли маҳалласидан:**

– Бу ерга биринчи келган куним сочимни калталатишни айтишди. Сартарошхонада сочимни олдирмайман, деб тортишиб қолганимдан энди хижолатдаман. Хаёлга келмайдиган, тушга кирмайдиган



воқеалар бўляпти. Уйдан чиқаётганимда онам менга ўқишга борасан деганди. Бирданига ҳаммаси биз тасаввур қилганимиздан ҳам бошқача кўриниш олди. Эгнимизга ҳарбий либос кийдик. Бу ердаги ўн кунлик ҳаётимиз ҳарбий-часига ўтди. Ҳарбийча тартиб-интизом, эрталаб вақтли туриш, жанговар, жисмоний, маънавий дарслар ва машғулотлар. Бу ерга келиб, ҳарбий акаларимизнинг кўзида шахт, шижоатни кўрдим. Шу он кўз ўнгимда туну кун халқимиз осойишталигини сақлаб турган инсонларнинг ҳақиқий тимсоли гавдаланди...

Асрор РЎЗИБОЕВ



лейтенант Утабек НОҒИБОЕВ



# BO‘KADA BAYRAMONA KAYFIYAT

Milliy armiyani xalqqa yanada yaqinlashtirib, Qurolli Kuchlar tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mohiyatini aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib etilayotgani sir emas. Bunday tadbirlar geografiyasi olis mahalla va qishloq yoshlarini qamrab olayotgani quvonarlidir. Harbiy-vatanparvarlik ruhidagi bunday festivallarni ko‘rib, chinakam sayil deysiz.



Muallif suratga olgan

Bo‘ka tumanidagi yoshlar bog‘i hudud jihatidan ancha keng. “Milliy armiyamiz yoshlar nigohida” shiori ostidagi festivalga yaqin-uzoqdan kelgan bo‘kalik yoshlar salmog‘i undan kam emas. Shunga monand tarzda bayramona tadbir dasturi kun bo‘yi ko‘tarinki ruhda davom etdi.

Bog‘ to‘rida harbiy texnika va qurol-aslahalar bir qatorga terilgan. Yigit-qizlar harbiylar ko‘magida ularning texnik-taktik xususiyatlari bilan tanisha turib, bu lahzalarni esdalik uchun suratga muhrladi. Yurtimiz posbonlarining ko‘rgazmali chiqishlari festival ishtirokchilarini bir davraga jamladi.

Maktab va mahallalar kesimidagi arqon tortish, futbol, voleybol, shaxmat, shashka, stol tennis musobaqalari o‘tgan ochiq stadion o‘quvchi-yoshlar bilan gavjum. Bog‘ yo‘laklarida tuman “Barkamol avlod” bolalar maktabi o‘quvchilarining turli to‘garaklarda qo‘l mehnati yordamida tayyorlagan bejirim san‘at asarlari tomoshabinni o‘ziga mahliyo etadi, ko‘zni quvnatadi. Qurolli Kuchlar akademiyasi harbiy orkestri, iste‘dodli xonandalarning kuy-



qo‘shiqlari festivalning bayramona o‘tishiga hissa qo‘shdi.

“Zakovat” aql bellashuvi va “Yosh kitobxon” tanlovida g‘oliblikka da‘vogarlar talaygina. Hakamlarga ular ichidan eng bilimdon va zukkosini saralash oson bo‘lmadi. Har ikki yo‘nalishda g‘olibni aniqlash uchun belgilangan shartlardan tashqari qo‘shimcha savollar berishga to‘g‘ri keldi. Shu tariqa besh muhim tashabbus ijrosining samaralari ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi.

Mudofaa, Ichki ishlar, Xalq ta‘limi, Madaniyat, Bandlik va mehnat munosabatlari, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirliklarining hududiy boshqarmalari, Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari, Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar ittifoqi, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining hududiy bo‘limlari, tuman hokimligi singari qator tashkilot, idoralar hamkorligida o‘tkazilgan tadbir ko‘lamini hamkorlikdagi tashkilotchilar ko‘rsatib turibdi. Festival yakunida g‘olib va sovrindorlarga diplom va esdalik sovg‘alar topshirildi.

Dilshod RO‘ZIQULOV

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo‘nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktabda “Milliy armiyamiz yoshlar nigohida” shiori ostida davra suhbat o‘tkazildi.



## RAQOBATBARDOSH, ZUKKO, VATANPARVAR



Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti tashabbusi bilan tashkil etilgan tadbirda institut professor-o‘qituvchilari, bir guruh ofitserlar, kursantlar va o‘quvchilar ishtirok etdi. Tadbirda taqqoslanganidek, har ikki o‘quv

muassasasi davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bir kunda tashkil etilib, foydalanishga topshirilgan. Buning zamirida zamonaviy ilm-fan va axborot texnologiyalarini mukammal egallagan, strategik fikrlaydigan, mehnat bozorida raqobatbardosh, vatanparvar, yetuk kadrlar tayyorlash maqsadi ko‘zlangan.

Dastlab maktab o‘quvchilariga harbiy institut tarixi va hozirgi faoliyati xususida videorolik orqali ma‘lumot berildi. Dunyo standartlari darajasida jihozlangan zamonaviy oliy harbiy ta‘lim muassasasida yuqori malakali ofitser kadrlar tayyorlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar tadbir ishtirokchilarida katta qiziqish uyg‘otdi.

Institut laboratoriyasi va ilmiy tadqiqot markazida kursantlar tomonidan tayyorlangan texnik ishlanmalar ko‘rgazmasida yosh ixtirochilarning innovatsion texnologiyalari namoyish etildi.

Tadbir so‘ngida ikki tomonlama hamkorlik rejasiga asosan, IT bo‘yicha o‘zaro mahorat darslari, sport va intellektual musobaqalar o‘tkazish bo‘yicha kelishib olindi.

#Ochiq eshiklar kuni

## “MARD ASKAR –

“  
Bugungi kunda  
hukumatimiz tomonidan  
mamlakatimiz kelajagi  
bo‘lgan yosh avlodni har  
tomonlarga yetuk va  
barkamol bo‘lib voyaga  
yetishi uchun katta e‘tibor  
qaratilmoqda.”



## YOSHLARGA NAMUNA!”

Surxondaryo viloyatida joylashgan harbiy qismlarning birida kelajagimiz egalari bo‘lgan yosh avlodni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, harbiy xizmatga mehrini uyg‘otish maqsadida Muzrabot tumani kasb-hunar maktabi hamda umumta‘lim maktablarining o‘quvchilari uchun “Mard askar – yoshlarga namuna!” shiori ostida ochiq eshiklar kuni o‘tkazildi.

Tadbir mobaynida harbiy xizmatchilar tomonidan yoshlarga qurol-aslahalar, harbiy texnikalar ko‘rigi va xizmat hayvonlarining ko‘rgazmali chiqishlari namoyish qilindi. O‘quvchilar harbiylar hayoti, ularga yaratilayotgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishish barobarida, ularni Vatanimiz chegaralari daxlsizligini himoya qilishdek sharaffi

ishlarida doimiy foydalanib keladigan maxsus vositalarning texnik-taktik tavsifi bo‘yicha tushunchalarga ega bo‘lishdi.

Yoshlar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga harbiy xizmatchilar tomonidan javoblar olishdi, tadbir bilan hamohang tarzda kunning ikkinchi yarmida Muzrabot tumani hokimiyati hamda mutasaddi tashkilotlar ishtirokida davlatimiz chegaralarini buzib kirganlarga qarshi kurashda qahramonlik ko‘rsatgan Yo‘lchi mahallasida yashagan marhum Ziyodulla Qo‘ldoshev va Sopollitepa mahallasida yashagan Ulug‘bek Alibekovning yaqinlari holiday xabar olindi.

Jamshid NAZAROV,  
Muzrabot tumani kasb-hunar maktabi direktorining o‘rinbosari





# «ВАТАННИ

## МУҲАББАТ БИЛАН

### ҚҮРИҚЛАШ КЕРАК»



#### СУҲБАТДОШ ҲАҚИДА МАЪЛУМОТ:

Муслимбек ЙҮЛДОШЕВ Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими, «Олтин қалам» Миллий мукофоти совриндори.

1958 йил 12 июнда Тошкент шаҳрида туғилган.

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти ҳамда Тошкент давлат юридик институтида ўқиган. 1978 йилдан Ўзбекистон МТРҚда суҳандон бўлиб иш фаолиятини бошлаган.

«Сиз мени танийсиз», «Ёр кўчаси», «Сўз сеҳри», «Мен интилган манзил», «Кўнглим кошонаси», «Автотранспорт оиласида», «Тақдир йўллари – бахт манзиллари», «Ёр ҳам янгилик эмас», «Шажара», «Силсила», «Дийдор ширин», «Мўминга бегона баҳор», «Суҳандонлар», «Ўзбек давлат миллий театри намояндалари» номли ўндан ортиқ китоби, дунё адабиётидан таржималари чоп этилган.

#### – ЭНГ БИРИНЧИ ЎҚИГАН КИТОБНИГИЗНИ ЭСЛАЙ ОЛАСИЗМИ?

– Энг биринчи ўқиганим эсимда йўғу, энг биринчи варақлаган китобларим эсимда. Бу саккиз жилдлик «Минг бир кеча» эртаклари бўлиб, уларнинг саҳифаларида ниҳоятда ранг-баранг, сирли-таъсирли, баъзан кўрқинчли суратлари бўлар эди. Балки, ўшанда «Синдбод баҳрий» қиссаларини ўқигандирман. Кейинги ўқиганим Ёқубжон Шукуровнинг «Қасос» романи эди. Унда Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўлмас исмли ўзбек йигитининг жасорати ҳақида ҳикоя қилинади. Бу 1968 йил эди, адашмасам.

#### – НИМА ДЕЙСИЗ, БИР КУНДА НЕЧА БЕТ КИТОБ ЎҚИШ КЕРАК?

– Бунга бирор аниқ кўрсатма бериш қийин. Агар

одамда китоб ўқишга иштиёқ бўлса, уни тўхтатиб бўлмайди. Тунни кунга улаб ҳам ўқийверади. Китоб мутолаасидан завқланмайдиган, бу машғулотдан лаззат ҳис қилмайдиган одамларга фалонча бет ўқигин, деб мажбурлаб ҳам бўлмайди. Лекин фарзандларимизни китоб дунёсига олиб киришимиз учун «кунига беш-олти варақдан ўқийсан», деб топшириқ берсак, кейин ўқиган-ўқимаганини назорат қилсак бўлади. Шояд, шу йўсин китобхон бўлиб кетишса.

#### – БАЪЗИ МАШҲУР АСАРЛАР АСОСИДА ФИЛЬМ СУРАТГА ОЛИНГАН. КИНОНИ КЎРИБ ҚҮЯ ҚОЛГАН АФЗАЛМИ Ё КИТОБНИ ЎҚИГАН?

– Шундай асар борлигини билган ва ўзи китобга ошно бўлган одам албатта, китобини ўқигани маъқул. Аммо баъзида шундай бўладики, бирор фильмни экранда кўриб қоласиз-у, кўнглингизга ёқиб қолади. Кейин титрларни ўқисангиз, «фалон ёзувчининг пистон асари асосида суратга олинган», деб қўяди. Шунда мен ҳар сафар ўша китобни албатта топиб, ўқиб чиқаман. Бунақа қилишимга сабаб, режиссёр зоти баъзан шунақанги бузиб юборадик, асар моҳиятини фақат аслини ўқигандагина билиш мумкин. Яхши асарни китобдан ўқиганга не етсин.

#### – ЕТУК НОТИҚ, ТЕЛЕБОШЛОВЧИ БЎЛИБ ЕТИШИШГИЗДА КИТОБНИНГ РОЛИ ҚАНДАЙ?

– Беқиёс. Билмадим, китоб ўқимаганимда бунчалик даражада суҳандон бўлармидим?! Ахир бошловчига фикр, дунёқараш, сўз бойлиги, муомала маданияти сингари жуда кўплаб фазилатлар керак бўлади-ку. Бунга сотадиган бирон фирма дўкони бўлмаса. Уни чойга аралаштириб ичиб олиш имкони йўқ бўлса. Замонавий бутикларда сотиладиган кийимларга қўшиб сотмаса. Фақат ва фақат китоблардан олиш мумкин буларни. Китобларга қўшимча бугунги кун нафасини бериб турувчи газета ва журналлар ҳам сизни замон билан ҳамнафас ижодкор сифатида шакллантиради, фи-

крингизни, дунёқарашингизни бойитади, шунинг учун ҳам мутолаадан узоқлашмаслик керак.

#### – КИТОБ ЎҚИШ КИШИГА НИМА БЕРАДИ?

– Бу ҳам қизиқ савол. Кимга нима керак? Биров кийим-кечак жинниси. Бошқа биров пулни кетига тушган. Аммо дунёдан маъно излаган, маданиятга интилган, зиё ахтарганлар ҳам борки, улар китобга муҳтожлик сезадилар. Ўз фарзандларини комил инсон қилиб тарбияламоқчи бўлганлар уларни китоблар оламига ошно қилсалар, ўзлари учун ҳам, фарзандлари учун ҳам керакли бўлган барча йўл-йўриқ, маслаҳат, хулосаларни оладилар.

#### – ВАТАН ҲИМОЯЧИСИ БИР КУНДА МУТОЛААГА ҚАНЧА ВАҚТ АЖРАТИШИ КЕРАК, ДЕБ ЎЙЛAYSИЗ?

– Ишончим комилки, Ватанни кўр-кўрона севиб, бирор натижага эришиш қийин. Уни онгли равишда севиш керак, Ватанни муҳаббат билан қўриқлаш керак. Инсонда фахр, бурч, эл-юрт олдида қарздорлик туйғулари бўлиши керак. Айниқса, Ватанимиз посбонларида. Буларни ҳис қилиш, ўз ақл тарозусида ўлчай билиш, юки, залворини тўғри чамалаб, тарихини билиб, қиёсий кадр-қимматини баҳолай олиб севиш керак Ватанни. Бунинг учун эса аввало, китобларга дўст тутиниш лозим.

#### – КИТОБ ЎҚИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ БОРМИ?

– Ҳа, албатта. Ўқиш ўқиш учун бўлмаслиги керак-да! Маъно уқиш, билимларга эга бўлиш, мутолаадан завқланиши керак одам. Кимга саргузаштлар, кимгадир детектив асарлар ёқади. Кўпчилик тарихий, реал воқеаларга асосланган асарларни севиб ўқийди. Ёшларимиз кўпроқ севги-муҳаббат мавзуларига ўч бўлишади. Охирги пайтларда аксарият диний йўналишдаги китобларга меҳр қўйишган. Ҳар ким ўзи севган мавзудаги китобларни ўқиши керак. Бироқ фақат шу билан чегараланган одамнинг билимлари бирёқлама бўлиб қолиши ҳам турган гап. Ора-чора ёндош

мавзудаги асарларга ҳам вақт ажратиш лозимдир. Билимлар ва маълумотлар доираси кенг бўлса яхши-ку.

#### – ҲОЗИР КИТОБНИНГ ЎРНИНИ «СОТКА-МОТКА»ЛАР ЭГАЛЛАМАЯПТИМИ?

– Биласизми, дунёда абадий нарсанинг йўқ. Агар «сотка»ларда бўлса ҳам китоб ўқишаётган бўлса, бу яхши. Бу ҳам бир давр. Бир вақтлар ёшлигимизда одадий радиоларни эшитмасдик-да, ўғринча эфирга чиқадиган «шарманкачи»лар радиосини эшитардик. Ўтиб кетди! Кейин ҳамма кўчада кўтариб юрадиган қўл магнитофонларига ружу қўйди. Ўтиб кетди! Бу ҳам ўтади. «Ин ҳам мегузарад!» дейди форс мақоли. Ишқилиб, китобхонлик ўтмасин. Худога шукур, нашриётларимиз ҳар турли мақом ва даражадаги китобларни чоп этиб туришибди, китоб дўконларида адабиётлар сероб. Баъзи йўналишдаги китоб савдосига кўп бизнесменлар ҳавас қилса арзийди. «Сотка-мотка»лардан безган авлодларимиз китобга юз тутишлари аниқ. Зеро, китоб ўзга бир дунёдир!

#### – СИЗНИНГЧА, БУГУННИНГ ВАТАН ҲИМОЯЧИСИ ҚАНДАЙ БЎЛИШИ КЕРАК?

– Ҳамма замонларда ҳам уларга мардлик, жасурлик, кўрқмаслик хос бўлган. Бугун ҳам шундай. Аммо дунё ўзгарган, уруш майдонларидаги ола-тасир ўқ отишлар кўринишидан технологик турларга, информация урушларига, био-кимё ва яна алламбало кўришишларга ўтиб кетган. Рақиб ўта маккор, ниҳоятда тезкор. Ватан ҳимоячиси, юрт посбони ҳам унга қарши ўларок, ўта хушёр бўлиши керак. Билимли, зийрак ва сезгир бўлиши керак. Энг камида душман билан қадам-бақадам ёки ундан олдинроқ юриши керак.

#### – Мазмунли суҳбатингиз учун раҳмат!

Суҳбатдош  
Абдураззоқ ОБРҮЕВ,  
истеъфодаги подполковник,  
Ўзбекистонда хизмат  
кўрсатган журналист



# GO'ZALLAR BELLASHGANDA

**Ayollarni bahorga qiyoslashadi, gullarga qiyoslashadi. Albatta, bu tashbehtar ularning go'zalligi, latofatiga qaratilgan. Biroq ayolda ko'rinmas kuch, sabr-u qanoat, mustahkam iroda borki, bu uning onalik, rafiqalik, bekalik majburiyati bilan uzviy bog'liq. Bu majburiyat ilkida chaqqonlik, zukkolik, tarbiyachilik, o'ziga xos tadbirkorlik va yaratuvchanlik mujassamki, namunali oila bekasi bo'laman degan ayol bu talabni uddalashi lozim.**

Mudofaa vazirligining Toshkent shahridagi harbiy qismlardan birida "Men namunali harbiy oila bekasiman" shiori ostida bo'lib o'tgan "Balli, ayollar!" ko'rik-tanlovi go'zal xilqat egalari nafaqat go'zallig-u nazokatini, balki mahorat-u shijoatini ham yuzaga chiqardi.

Qo'mondonlik miqyosida amalga oshirilgan tanlovda harbiy oilalarning yetti nafar namunali bekasi ishtirok etdi. Respublikamizning turli hududlaridan tashrif buyurgan zukko ayollar to'rt yo'nalishda o'zaro bellashdilar. Ularning shartlar bo'yicha har bir chiqishi hay'at a'zolari tomonidan odilona baholab borildi.

"Men namunali harbiy oila bekasiman" deya nomlangan birinchi shartda oila bekalari o'zlarini she'riy kalomlar ila tanishtirib o'tdi.

"Ignadan ip o'tmasa" sharti bekalarning chevar-chechanligi, ayollarga xos chaqqonligini namoyish etdi. Bunda go'zal ishtirokchilarimiz tomoshabinlar ko'z oldida ip va igna bilan qo'l mehnati orqali chiroyli va benuqson chok tikishlarini ko'rsatib berishdi.

"Hozirjavob va zukko ayol" shartida esa bekalari Mudofaa vazirligi xotin-qizlar

va harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassis Zulfiya Mansurovaning savollariga tez va donolik ila javob berishlariga to'g'ri keldi. Oilaviy hayotga asoslangan bu savollar ularning qay darajada oilaparvar va tadbirkor ekanligini yuzaga chiqardi.

"Biz To'maris izdoshlarimiz!" Shart nomidan ham ko'rinib turibdiki, ayol ham Vatan tinchligiga daxldor shaxs. Shoir aytganidek:

*Ayol gar istasa har ishga qodir,  
Qaddini bukmagay cho'ng dovonlarda.  
Yurt erki yo'lida qatorda nordir,  
Shaxt-la ot suradi keng maydonlarda.*

Darhaqiqat, ayol nafaqat oila bekasi, balki jamiyatning turli sohalarida faoliyat yuritib, mamlakatimiz rivojiga ulkan ulush qo'shayotgan ishchi-xizmatchi ham. Kezi kelsa, u To'maris izdoshiga aylanib, yurtini himoya qila oladi.

Tanlov ishtirokchilari so'nggi shartni chin dildan ado etishdi, desak, to'g'ri bo'ladi. Ular tarixda o'chmas iz qoldirgan buyuk ayollar, ulug' momolarimiz To'maris va Nodirabegim talqinini sahnaga olib chiqishdi. Dildora Ahmadaliyeva, Gulmira Rabbimova hassos shoira Nodirabegim



obrazi orqali vatanparvar, xalqparvar malika, bag'ri kuygan ona siymosini talqin etgan bo'lsa, Ziyoda Elmurodova, Gulnozaxon To'lanova, Elmira Ziuatdinova, Shoira Fozilova, Marjona Farmonova dushmani mahv etgan massagetlar malikasi To'maris siymosini, jasoratini tomoshabinlarga havola etishdi. Bu borada tayyorlagan videoroliklari ham namoyish etildi. Jangovar kiyim va qilich bilan ot ustida harakat qilish, jang sahnasini namoyish etish... Bu jur'at uchun bekalariimizga faqat tasanno, deyish mumkin.

Ko'rik-tanlov davomida sahnada ijro etilgan sho'x qo'shiq va raqslar tadbirning ko'tarinki kayfiyatda o'tishiga zamin yaratdi.

Albatta, har bir bellashuv o'z qahramonlarini kashf etadi. Bir-biridan qolishmaydigan harbiy oila bekalari orasida Qoraqalpog'istondan kelgan Elmira Ziuatdinova "Balli, ayollar!" ko'rik-tanlovining g'olibi bo'lishga erishib, respublika bosqichiga yo'llanma oldi.

O'ziga xos ma'naviy-ma'rifiy tadbir so'ngida respublikamizning turli hududlaridan kelib, tanlovda ishtirok etgan harbiy oila bekalari minnatdorlik va ezgu tilaklar bildirildi. Ishtirokchilarning barchasiga qo'mondonlik tomonidan gullar va qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

Zulfiya YUNUSOVA,  
"Vatanparvar"

## #Uch avlod uchrashuvi

## #Armiya va yoshlar

### O'TMISHDAN FAXRLANISH, BUGUNGI KUNDAN MAMNUNIYAT



*Yaxshi yigit yurt tuzar,  
Yomon yigit yurt buzar.*

Xalqimizning bu maqoli bekorga aytilmagan. O'zbek ayoli o'g'il farzandli bo'lsa, yurtning himoyachisi yana bittaga ko'paydi, deb quvonadi. Shuning uchun ham bolalarga vatanparvarlik ruhini dastlab o'z onalari jo qilishadi. So'ngra atrof-muhit ham o'z ta'sirini o'tkaza boshlaydi.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida yurtimizda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ulardan biri Mudofaa vazirligining Toshkent shahridagi harbiy qismlardan birida bo'lib o'tdi. Mudofaa vazirligi faxriylar kengashi a'zolari, harbiy xizmatchilar va o'quvchi-yoshlar ishtirokida o'tkazilgan mazkur ochiq eshiklar kunida mehmonlar dastlab qo'mondonlik hududidagi "Yoshlar bog'i", "Harbiylar tarixi muzeyi" va "Adiblar xiyoboni"ga sayohat qilishdi.

Tashrifning eng qiziqarli qismi saf maydonida bo'ldi. Faxriy qorovul va harbiy xizmatchilarning qo'l jangi bo'yicha ko'rgazmali chiqishlari yosh avlod qalbida harbiy xizmatga bo'lgan qiziqishni yanada oshirdi, desak, yanglishmagan bo'lamiz. Harbiylarning xatti-harakatlaridan ta'sirlangan o'quvchilar ularga taqlidan saf qo'shiqlarini kuylab, ko'zlarni quvontirdi.

Tadbirning asosiy qismi madaniyat markazida bo'lib o'tdi. Unda so'zga chiqqan qo'shinlar qo'mondoni polkovnik Jur'at Yakubov Qurolli Kuchlar faxriylariga yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda qo'shayotgan ulkan hissalar uchun minnatdorlik bildirdi. Yoshlarga o'tgan kunimizdan faxrlanish, bugungi kunga shukrona keltirish va ertangi kunimizga ishonch bilan yuzlanish to'g'risida tavsiyalar berib o'tdi.

Yakunda faxriylarimizga hurmat ko'rsatilib, qo'shinlar qo'mondonining tashakkurnomasi va esdalik sovg'alar topshirildi.

Muattar MELIYEVA

Respublika Harbiy prokuraturasi tomonidan Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligi bilan hamkorlikda "Milliy armiyamiz yoshlar nigohida" shiori ostida Yashnobod tumanidagi 30-Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari ishtirokida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

### MEHR KO'ZDA... SO'ZDA!



Harbiy prokuratura xodimlari va yoshlar o'rtasida davra suhbatida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, harbiy xizmatni o'tash yo'l-yo'riqlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar berildi.

– Yoshlarga bo'lgan doimiy e'tibor, g'amxo'rlik, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish, ijtimoiy hayotdagi rolini oshirish davlatimizning bugungi kundagi ustuvor vazifalaridan biridir, – deydi Respublika Harbiy prokuratori katta yordamchisi adliya polkovnigi Sherzod Hayitov. – Yosh avlod vakillarini jamlagan ushbu tadbir ham kelajak avlodni harbiy hayotga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi, deb o'ylayman.

Shuningdek, tadbir davomida harbiy xizmatchilarning ko'rgazmali qo'l jangi chiqishlari, tuman madaniyat uyi xonandalarining kuy-qo'shiqlari yig'ilganlarga ko'tarinki kayfiyat ulashdi, bolajonlar qo'ngliga iliqlik olib kirdi.

Tadbirida yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga ham batafsil javob oldi. Yakunda tarbiyalanuvchilarga sovg'a-salomlar ulashildi.

Sh. EGAMBERDIYEV



# “ONA, JON!”

## U hayot berguvchimi yo olguvchi?

Insoniyat yaralibdiki, ona munis zot sifatida e'zozlanadi. Unga hurmat bilan munosabatda bo'lishga da'vat etiladi. Onani qadrsizlashga bee'tibor hech bir millat yo'q... Ayniqsa, hazrat Alisher Navoiyning:

*“Onalar oyog'i ostidadur  
Ravzayi jannat bog'i.  
Ravza bog'ing istasang,  
Bo'l onaning oyog'ing tuprog'i”*

bayti bu zotning qanchalar buyukligini yaqqol namoyon qiladi.

Ammo so'nggi vaqtda ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan ba'zi xabarlarini o'qib, yoqa ushlaysiz. Beixtiyor “shu ham onami?” deb yuborasiz...

### Ayiqqa otilgan qizaloq, chiqindixonadagi go'dak...

Internet olamida Toshkent shahridagi hayvonot bog'ida ayol o'zining 3 yoshli qizini ayiq qafasiga tashlab yuborgani, Urganchdagi chiqindixonadan yangi tug'ilgan chaqaloq murdasi topilgani haqidagi xabarlar “sovimay turib” shu kabi ayanchli holat yana kuzatildi: 8-fevral kuni yangi tug'ilgan chaqaloq ko'chaga tashlab ketilgan. Bosh prokuraturaning ma'lum qilishicha, shu kuni soat 02:00 atrofida Qoraqalpog'istonning Taxtakopir tumanida 2002-yilda tug'ilgan fuqaro o'g'il farzandini o'zi ishlayotgan joyga tashlab ketgan. Chaqaloq o'z vaqtida Respublika perinatal markaziga olib kelingan va uning hayoti saqlab qolingani.

Bunday holatlar sodir bo'layotganining qanday sabablari bor?! Achinarlisi, ba'zida go'daklar o'limiga dunyoga keltirgan onasi sabab bo'layotganidir. Bunday hodisalarni millat yuzidagi “dog” desak, adashmagan bo'lamiz.

### Statistika nima deydi?

2020-yilda O'zbekistonda 5 yoshgacha o'lgan bolalar soni jami 9 ming 816 nafarni tashkil qilgan. Hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich, Andijon viloyatida 1 212 nafar, Namangan viloyatida 1 016

nafar va Qashqadaryo viloyatida 980 nafar o'lim holati qayd etilgan. O'smirlik davrida ona bo'lish respublika bo'yicha 959 nafardan iborat. To'g'ri, bu raqamlar ortidagi fojialarning barchasiga ona sababchi emas. Ammo...

2017–2020-yillar davomida chaqaloq savdosi bilan bog'liq jami 185 ta jinoyat aniqlangan. Ularning 184 tasini bevosita ONAlar sodir qilgan. O'z chaqalog'ini sotgan jami 185 nafar ayolning 57 nafari og'ir ijtimoiy ahvolda ekanligi, 32 nafari homilani yashirish maqsadida, 96 nafari moddiy manfaat topish maqsadida shu jinoyatga qo'l urgan. So'nggi uch yilda chaqaloq savdosidan 114 nafar chaqaloq va bola jabrlangan, ularning asosiy qismi 3 yoshgacha bo'lgan bolalar.

### O'zbek millati va temirchi oila...

Tarixdan hamisha xulosa chiqarish lozim. Xatolardan ham, faxrlanishga arzigulik sabablardan ham. Chunki tarix – eng yaxshi ustoz. Ikkinchi jahon urushi davrida oddiy temirchi oilasining ko'rsatgan jasorati butun dunyoga o'zbek millatining qanchalik bag'rikeng va bolaparvarligini ko'rsatib qo'ygan. Ha, aynan o'sha, sizga tanish Shomahmudovlar...

Shoahmad Shomahmudov va uning xotini Bahri Akramova qarovsiz va yetim qolgan 16 nafar bolani asrab olgandi. Eng qizig'i, o'sha vaqtda Shomahmudovning oilasi haqidagi xabar frontgacha yetib borgan. Buni eshitgan ukrain millatiga mansub bo'lgan katta leytenant Levitskiy Shoahmad otaga pul yuboradi. Shoahmad ota pullarni olishni istamaydi. Chunki bolalarni o'zining farzandidek qabul qilgan. Oilasini boqish uchun kimdandir pul olishni oriyat deb hisoblaydi. Ammo Levitskiyning yaxshi niyatdaligi va farzandlari urush sabab halok bo'lganini bilgach yana bir ukrain bola Sanya Brininni o'z bag'riga oladi.

Urush yillarida o'zbek oilalari jami 4,5 ming nafardan ziyod yetim bolani asrab olishgan. Odamni chuqur o'ygatdirdigan savol: yegani non ham doim topilavermagan bir zamonda “bolaning begonasi bo'lmaydi”, deya quchog'iga olgan millat onalarining davomchilari bugun nima uchun mana shunday ahvolga keldi?!

### Ulug'bek Hamdam “Ota”ni nega bunday ta'rifladi?!

Ehtimol, yozuvchi Ulug'bek Hamdamning “Ota” romanini o'qigandirsiz. Balki, yo'q. Ammo yozuvchi bir inson qismati orqali jamiyatda otaning roli qanday ekanligini, uning ahamiyati nafaqat oilasi, mana shu millatga daxldor ekanligini ochib bergan.

Asar qahramoni Po'lat g'ururli, el ichida o'ziga yarasha obro'-e'tiborli odam. Uning uyiga o't ketadi-yu, yolg'iz qizi olov ichida qoladi. Yuzy o'tda kuygan qizini ko'rganda, o'zi o't o'chiruvchi bo'lsa ham farzandini qutqarib qololmaganidan butun umr vijdoni qiynaladi. Ehtimol, shu sabab hamisha qizining ko'ngliga qaraydi. Asrab-avaylaydi, bir otaning qo'lidan nimaiki kelsa, shuni qiladi. Taqdirning chigalliklari kutilmagan voqeani yuzaga keltiradi: qizi benikoh farzand ko'radi. Bexabar ota odamlar davrasida bu gapni eshitadi. Xizmat safariga ketdi, deb yurgan qizining oldiga –

kasalxonaga boradi. Ne tongki, otasini ko'rib, shoshib qolgan qizining ko'ksiga qo'ynidagi pichog'ini sanchadi...

Bir qarashda otaning kechirib bo'lmaz qaroridek tuyuladi bu. Haqsiz, xatoni shafqatsizlik orqali to'g'rilab bo'lmaydi. Ammo muallif Po'latning tilidan “Agar bugun men bu ishga ko'z yumsam, ertaga millatning boshqa qizlari ham shu xatoni qilishdan hayiqmasliklari mumkin” degan ma'no orqali o'z fikrini ifodalagan. Yanglish yo'lga qadam qo'yishgacha bo'lgan vaqt oilada ota tarbiyasining ahamiyati va bu borada tarozi posangisini muvozanatda ushlash lozimligini anglash qiyin emas.

### Farzand – jon qadar...

To'g'risini aytaman, bolalar, ayniqsa, go'daklarga bo'lgan shafqatsizlik haqida eshitsam, ancha vaqtgacha o'zimga kelolmayman. Bunga, balki, oilamiz bilan bog'liq vaziyatlar ham sababchidir...

Onam yolg'iz o'zi biz, olti farzandni katta qildi. Biror marotaba qiynalganidan noliganini eshitmaganmiz. O'zi yemasa ham og'zimizga tutgan. Endi ulg'ayib, og'irini yengil qiladigan, ortimizdan yaxshi kunlarni ko'radi, degan vaqtda onam bizni tashlab ketdi... Qiyinchilikda o'tgan umri, farzandlarini deb. O'zi uchun yashagan kunini eslolmayman...

Yaqinda opamning yolg'iz qizi ehtiyotsizlik sabab bu olamdan erta ketdi. Opam qattiq tushkunlikka tushdi. Odamlardan, atrof-muhitdan uzildi. Yegan luqmasi tomog'idan o'tmay ham qolgandi. Axiyri farzand dog'ida omonatini topshirdi...

Akam oila qurganiga bir necha yil bo'lgan, ammo tirnoqqa zor... Shu vaqtgacha bir o'ynab-kulganini bilmayman. Dardi ichida...

Kimdir o'z bolasiga istabmi-istamaymi, yomonlikni ravo ko'rsa, ko'ksimdagi achchiq yaralar tiralgandek bo'laveradi. Shuning uchun farzandi taqdiriga beparvo onalar haqida o'qiganimda, eshitganimda “Sen ham onamisan?!” degan savol yuragimni zirqiratib o'tadi...

Ro'ziqul OCHILOV,  
“Vatanparvar”

## #Xalq va armiya – yakdil

# HARBIYLAR – MAKTAB MEHMONI

**Bugun harbiy xizmatchilar ta'lim-tarbiya o'chog'i bo'lmish maktablarda o'quvchilar bilan uchrashib, yosh avlodning hayrat-u havasini oshirayotgani sir emas. “Xalq va armiya – bir tan-u bir jon!” shiori ostidagi shunday tadbirlardan biri Mirobod tumanidagi 294-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabida bayramona ruhda o'tkazildi.**

Tadbirda tuman hokimligi, tuman mudofaa ishlari, ishki ishlar, xalq ta'limi, yoshlar ishlari, madaniyat bo'limlari vakillari so'zga chiqib, o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda bunday tadbirlar muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi. Maktabda besh muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan fan, san'at, sport to'garaklari faoliyati namoyish etildi. Shuningdek, kitobxonlik va sport musobaqalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan o'quvchilar tuman mudofaa ishlari



bo'limi tomonidan diplom va kitoblar jamlanmasi bilan taqdirlandi.

Mirzo Ulug'bek tumanidagi 210-umumta'lim maktabidagi festival esa Qurolli Kuchlar akademiyasi harbiy orkestrining musiqiy guldastasi bilan boshlandi. Vatanga sadoqat, mardlik, matonat singari mavzular kuylangan tadbir “Nazm va navo” kechasiga ulanib ketdi. Unda maktab o'quvchilari buyuk mutafakkirlar Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga

bag'ishlangan sahna ko'rinishlarini mahorat bilan ijro etishdi. Ulug' ajdodlarimizning g'azal va ruboiylaridan namunalar o'qidilar.

– Hozirgi o'g'il-qizlarning buyuk ajdodlarimizga munosib bo'lib voyaga yetishida bu kabi tadbirlarning alohida o'rni bor, – deydi maktab o'qituvchisi Marg'uba Turg'unova. – O'quvchilarning ushbu tadbirga qizg'in va puxta tayyorgarlik ko'rgani sahnadagi chiqishlarida yaqqol namoyon bo'ldi. Festival avvalida harbiy orkestr ijro etgan kuylar bolalarning qalbida unutilmas taassurot qoldirdi. Bugungi tadbir va mehmonlarning ishtiroki ularga biz bir soatda uqtirishimiz mumkin bo'lgan bilimdan-da ko'proq ta'sir qilgan bo'lsa, ajab emas.

D. RO'ZIQULOV







# ҲАЁТ ТОМЧИЛАРИ

## АЁЛ ҚАДРИ

1986 йилнинг ёзи. Турдихон тун ярмида дам олишга ётди. Уйи тўла меҳмон, яъни акаси бошчилигидаги уста йигитлар бир ҳафтадирки, ҳовлисига янги уй тиклашяпти. Аёл зоти уй-жойи обод бўлгани сари чарчоқ нелигини сезмайди, усталарга жон дили билан хизмат қилади.

Турдихон бошқа тумандан келин бўлиб тушган. Ўқтамжон иккинчи турмуш ўртоғи. Битта боласи билан бефарзанд эркакка турмушга чиққан жувон кўп ўтмай эрининг юзини ёруғ қилди: ўғил туғиб берди. Кексайиб қаддини кўтаролмай қолган қайнонасини парваришлаб, дуосини олди. Трактор мойига беланиб юрадиган эрининг кийим-кечагини покиза қилиб, элга қўшди. Шу аснода қаровсиз, нурай бошлаган уйларни имкон қадар таъмирлатди, оқлатди-кўклатди. Ҳовлига гулу райхонлар экиб, томорқага эътибор қаратди. Бунинг учун ҳамма нарсага қўл силтаган дангаса эрини ишга солди.

Маҳалла-кўй эски тракторни зўрға эплаб минадиган, дунёни сув босса, тўпиғига чиқмайдиган, танбал йигитга эпчил-чаққон, ишбилармон аёл рўбарў бўлганидан ҳайратини яширмасди. «Бу ҳам бўлса, Аллоҳнинг инояти», қўшнилари ўзаро суҳбатда Турдихон ҳақида албатта тўхталиб ўтишарди. «Меҳнатнинг тагида эзилган, ёлғиз ўғлини деб умри ўтган Манзура холанинг бахти бу. Хокисор кампирнинг илтижоси Худога етиб борган-да...»

Фақат тўкилиб тушаман деган эски уйларни қайта қуришнинг имкони йўқ. Бунинг учун каттагина сармоа зарур. Иккита дала ишчисининг топгани нимага арзирди. Солиқ тўловлари-ю, қорин қайғуси билан соп бўлади. Шунда ҳам Ўқтамжоннинг эски трактори бузилмай, Турдихон энг зарбдор колхозчилар қаторида бўлса.

«Биттагина соғин сизир бўлганда эди, – орзу қила бошлади жувон.

– Туёқларни кўпайтириб, уй-жойларни яхшилаб олардик. Ўғилчамга суннат тўйи қилардик. Акаларим нима каминг бор, деб сўраб туради. Балки, айтсам...»

Қиз боланинг тушган жойида тошдек қотиши – яқинларининг бахти. Устачилик билан шуғулланадиган акалари бирлашиб, сингилларига сизир олиб берди. Орзуси ушалган Турдихоннинг меҳнатига заҳмат қўшилди, мол парваришига киришиб кетди. Туёқларнинг сони ортиб борди. Бу орада эрини қизалоқ билан сийлади. Уй, дала, болалар, мол-ҳол... У яхши яшаш учун ҳамма нарсага улгуришга ҳаракат қиларди...

– Дадаси, – эрига юзланди кайфияти чоғ Турдихон, – новвосни яқин бир йил емладик, энди сотсак ҳам бўлади.

– Ҳа, менам шуни ўйлаб тургандим, – хотинининг гапини маъқуллади, анчайин тетиклашиб қолган Ўқтамжон. – Ҳафтанинг охирида мол бозорига олиб чиқаман.

– Молнинг пулини нима қиламиз, биласизми? – сирли жилмайди жувон.

– Нима қилардик, хаёлинг янги уй қуришда-ку. Ёғоч-поғоч олармиз-да.

– Йўқ, тополмадингиз. Иморотни келгуси йилдан бошлаймиз. Бу гал сизга қажавали мотоцикл оламиз.

– Йўғе-е, – ҳайратини яширмади эркак. – Новвоснинг пули сен айтган мотоциклга етмаса керак. Янгиси қиммат.

– Бир-икки сўм йиққаним бор, ўшани қўшамиз. Етмаса, минилганидан оламиз. Улов бўлса яхши-да, рўзгорга хизмат қилади. Молларга даладан ўт, ем-хашакни қийналмай олиб келамиз...

Ўқтамжоннинг янги мотоцикл миниб юргани тенгқурларининг ҳавасини келтирган бўлса, ёш йигитларнинг кўзини ўйнади. Кўп ўтмай, Турдихоннинг акалари унга янги иморат тиклаб беришга қарор қилишди.

Хонадондаги сизирдан бошқа туёқлар сотилди, қурилиш бошлаб юборилди.

Кўнгли тоғдек кўтарилган жувон чарчаш нимагини билмайди. Усталарга уч-тўрт маҳал овқат тайёрлайди, улар овқатланишга ўтирди дегунча, ҳовлидаги ёғоч чиқиндиларини тозалайди, болаларига, бир жойда ўтириб қолган қайнонасига қарайди.

Усталар тонг ёришган замон иш бошлайди. Аёл улардан олдин туриб чой тайёрлаши лозим. Шу сабаб, тунда хамир қориб, тонг сахар нон ёпади. Ҳолвайтар ёки қатлама пиширади. Бугун ҳам Турдихон ҳамма уйқуга ётганда хамир қорди, қатламани пиширишга тайёрлаб, дам олиш учун жойига чўзилди. Кўзи илиндими-йўқми, бақир-чақирдан уйғониб кетди. Бостирмага қўйилган мотоцикл дарвозахонада турар, эри ва акаси қўшни маҳалладаги Аҳад исмли йигитнинг қўлидан маҳкам ушлаб, савол-жавоб қиларди.

– Ўғриликка тушгани уялмадингми? Мотоциклни олиб чиқиб, сотмоқчимидинг? – ўғрининг ёқасидан олди Ўқтамжон. – Шеригингни ҳам кўрдим, қочиб қолди аблаҳ! Ким эди у, гапир?

– Тухмат қилманг, мен ўғриликка кирганим йўқ, – унинг қўлидан чиқишга интиларди йигит.

– Унда бостирма тагида турган мотоцикл қандай қилиб дарвозахонага келиб қолди? Мени масҳара қиляпсанми? Ҳозир сени... – бўғзидан қисди Ўқтамжон.



– Ака, ўзингизни босинг, – уни тинчлантирди Турдихоннинг акаси. – Милицияга топширсак, ўша ҳал қилади.

Зум ўтмай, кечқурунги шовқиндан маҳалла аҳли йиғилди. Аҳад тап тортмай ҳаммининг олдида бир сўзни такрорлади:

– Мен ҳеч қандай ўғриликка кирганим йўқ. Манави опанинг олдида кирганим, – Турдихон томонга имо қилди Аҳад. – У билан ярим тунда учрашишни келишиб олгандик.

Унинг гапидан Турдихоннинг оғзи калимага келмас, нима бўлаётганини тушуна олмасди. Бир-бирига сирли қараб турган қўшнилари эса...

Аҳаднинг хаёлида ўғриликка бирга тушган шеригининг гапи чарх урарди: «Эсингда бўлсин, қай биримиз қўлга тушсак ҳам, аёлнинг олдида кирганимиз, деб туриб оламиз. Чунки қонунда ҳар қандай ўғрилик учун қамоқ жазоси бор, аёлнинг бошига кирганим учун ҳеч қандай жазо қўлланилмайди».

Шаъни, ор-номуси, оналик хурмати қонун олдида эски уловчалик қадри бўлмаган аёл покдомонлигини қандай исботлашни била олмай, кўз ёши юзини ювиб турарди...

## ЖОНДАН САДАҚА

Бугун Наимжон муаллимникида тўй, қиз узатапти. Эрталабки наҳор оши, кундузги хотин оши, куёв навкарларга зиёфат дегандек, тўй тадбирлари баҳона қишлоқ аҳли шу ерга йиғилган. Қатор уйлар қариндош-уруғлар билан тўла. Тўй яхши-да, ҳаммининг кайфияти чоғ. Кимлардир меҳмонларни қарши оляпти, кимлардир столларга дастурхон тузаяпти, ўн чоғли эркак қозон-ўчоқ бошида ҳазил-хузул билан таомлар тайёрламоқда. Фақат...

Фақат қўшни ҳовлида дугоналари билан ўтирган бўлажак келинчак Нафосатнинг кайфияти йўқ, хаёли фаромуш. Йўқ-йўқ, дилингизга нотўғри ўй келмасин, у кўнгли қўйганига турмушга чиқяпти. Бир воқеа содир бўлмаганида, у ҳозир еттинчи осмонларда учиб юрган бўларди. Кимлар учундир бу воқеа арзимас кўринар, аммо шоиртабиат, таъсирчан қиз учун...

Бу воқеа тўйдан бир кун аввал содир бўлди. Тўй баҳона муаллимнинг хонадонига мактаб жамоаси ва ёр-биродарларни таклиф қилиш белгиланди. Аёллар қўли қўлига тегмай

дастурхон тузашга киришиб кетди. Нафосат ҳам уларга ёрдамлаша бошлади. Шунда тақсим тузаш учун ликоп муаммоси келиб чиқди.

– Нафосатхон, юринг, бизникидан тарелка олиб чиқамиз, – деди қўшни келин Муниسخон. – Тўйингиз меҳмонлари учун шундай чиройли дастурхон тузайликки...

– Майли, – уялибгина унга қўшилди бўлажак келинчак...

Муниسخон идишлар терилган ойнаванд жавон олдида тўхтади. Унинг ичидаги уч қатор шишали тоқчаларга терилган хилма-хил қимматбаҳо чиннилар кўзни қамаштирарди. Дўконларда очиб сотилмайдиган нархи баланд бу буюмларга эришиш осон эмас. Жувон бир муддат идиш жавонидаги чинниларга терилиб турди-да, унинг тепа қисмидан жой олган турли катталикдаги тақсимчаларни авайлаб ола бошлади.

– Нафосатхон, қўлингизни узатинг, керакли тарелкаларни парлаб аста тахлайвераман, эҳтиёт бўласиз-да. Қолганини ўзим кўтариб олам.

– Албатта, опагон, – қўлини узатди қизгина.

Нафосатнинг қўли йигирмадан зиёд ликоп билан тўлди. Муниسخон уларни кўздан кечирар экан, ногаҳон:

– Мана бу ликопчанинг шериги йўқ экан, келинг, шуни жойига қайтара қолайлик, дея битта тақсимчани олиб, жавоннинг тепа тоқчасига қайтариб қўйди.

Қўйди-ю... кутилмаган воқеа содир бўлди. Мувоzanати бузилган шиша тоқча ҳаракатланиб пастки тоқчалар билан бирга барча чинниларни чилпарчин қилди. Буни кутмаган Муниسخон «вой ўла-а-й», дея чинниларга ёпишган бўлса, кўзлари катта-катта очилиб, ранги оқариб кетган Нафосатнинг оёқ-қўллари қалтирарди.

Муниسخон қизнинг ҳолатини кўриб, ўзини тез қўлга олди. Унинг қўлидан ликопларни олиб, четга қўяркан, – кўркманг, ҳаммаси яхши бўлади, – тинчлантирди у. – Фақат акангиз билмаса бўлгани, феъли оғир. Шунча чиннининг синганини билса, савол-жавоб-у, таънаси тугамайди. «Идишларингни сотса, битта машина келади», деб гапиргани-гапирган. Яхшиямки, тоқча овга кетган, эртага қайтади.

– Унда нима қиламиз? – хаста овозда сўради Нафосат.

– Ҳозир идиш топиб келаман. Синган чинниларни ўшанга соламиз. Беркитиб қўяман. Уёғи бир гап бўлар. Дастурхон тузаётганлар бизни кутиб қолгандир, шошилишимиз керак.

Муниسخон ташқаридан олиб келган иккита катта тоғора синган идишлар билан тўлди. Уларга қўшилиб Нафосатнинг юраги ҳам чил-чил бўлди. «Мени деб, менинг тўйимни деб қўшнининг неча йиллар давомида йиққан идишлари...» Шу бўлди-ю, қизнинг чехраси очилмади...

Эртасига Муниسخон опа қўшни ҳовлида қизлар даврасида ўтирган хомуш қизни ёнига чақирди. Унинг юзига қарашга ботина олмай турган Нафосатни бағрига босди.

– Ҳар ишда бир хайр бор, деганлари шу-да, – унинг юзига меҳр билан термилди жувон. – Бугун тонгда акангиз овдан қайтди. Чиннилар синганини яшира олмадим.

– Унда акам сизни...

– Қўркманг, акангиз мендан бу воқеа қайси пайт содир бўлганини сўради. Вақтини айтгандим, «худди ўша пайт тоғ тепасидан жарликка йиқилиб, парчаланишимга бир баҳя қолди. Бахтли тасодиф сабаб, Худо мени асради. Синган идишларинг жоним ўрнига кетган, шукур қил», деди. Сингилжоним, илоҳим, ой-дек бахт топинг!..

Зулфия ЮНУСОВА,  
«Vatanparvar»





# UCHUVCHISIZ APPARATLARNI

## TAKOMILLASHTIRISH YO'LIDA

“  
**Rivojlangan industrial-agrar mamlakat hisoblanuvchi Isroil iqtisodiyotida harbiy sanoat asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Mamlakatning harbiy-siyosiy rahbariyati qo'shinlarni jangovar boshqarishning yagona tizimi doirasida havo razvedkasini olib borish, nishonlarni aniqlash va ko'rsatib berish hamda bir qator boshqa vazifalarni bajarishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan uchuvchisiz uchish apparatlari (UUA) ni rivojlantirish sohasiga alohida e'tibor qaratib kelmoqda.**  
 ”

Hozirgi vaqtga kelib Isroil bunday apparatlar (*tizimlar*)ning umumiy soni bo'yicha AQShdan so'ng ikkinchi o'rinda bormoqda va yaqin kelajakda harbiy yo'nalishda tub o'zgarishlarga sabab bo'lishi kutilayotgan mazkur sohada ilmiy izlanishlar va yangi ishlanmalar bo'yicha yetakchilik qilmoqda. Isroilning o'nga yaqin yirik kompaniyalari turli vazifalarni bajarishga mo'ljallangan UUALarni ishlab chiqarish va eksport qilish bilan shug'ullanayotgan bo'lib, ular tomonidan shu kungacha 70 dan ortiq tipdagi apparatlar yaratilgan. Stokgolmdagi dunyo tadqiqotlari xalqaro instituti ma'lumotlariga ko'ra, jahon bozorida (*50 dan ortiq mamlakatda*) UUALar savdosining 41 foizi aynan Isroil aviasozlik kompaniyalari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Hozirda mamlakat Harbiy havo kuchlariga qarashli dronlar uchuvchi tomonidan boshqariladigan samolyotlarga nisbatan ko'proq jangovar parvozlarni amalga oshirmoqda, har kuni 24 soat mobaynida havoda uzluksiz jangovar navbatchilik ishlarini amalga oshirmoqda. Turli harbiy operatsiyalar va boshqa jangovar harakatlar jarayonida bunday apparatlardan foydalanish barcha turdagi texnik razvedka, radioelektron kurash, yakson qilish vositalarini nishonga to'g'rilash singari kompleks vazifalarni samarali hal qilish imkonini bermoqda. O'tgan yillar

mobaynida bu borada to'plangan tajriba uchuvchisiz aviatsiya rivojiga katta ta'sir o'tkazdi. Mamlakatda birin-ketin yangi firmalar tashkil etildi, aviasozlik korporatsiyalari turli vazifalarga mo'ljallangan UUALarni yaratish va ishlab chiqarish maqsadida



maxsus bo'linmalar faoliyatini yo'lga qo'ydi. Hozirda "Izrael aerospeys industriz" va "Elbit sistemz" konsernlari, "Yu Vijn" va "Aeronotiks" kompaniyalari mazkur yo'nalishda faol ish olib bormoqda, ularga qarashli korxonalarda turli modifikatsiyadagi "Syorcher", "Geron", "Germes", "Super Geron", "Xarop", "Xiro", "Orbiter-1K", "Grin Dregon", "Skaylark" va boshqa tipdagi UUALar ishlab chiqarilmoqda.

Hozirgi vaqtga kelib Isroil armiyasining uchuvchisiz aviatsiyasi tarkibidan o'ta kichik, hatto qo'ldan havoga ko'tarilishga qodir bo'lgan, og'irligi 300 grammga teng "Gotset" tipidagi dronlardan tortib, mamlakat Harbiy havo kuchlaridagi eng yirik "Eytan" (*tijoriy nomlanishi "Geron-TP", og'irligi 4 tonnani tashkil etadi*) singari UUALar joy olgan.

Isroil Harbiy havo kuchlari tarkibiga uchuvchisiz uchish apparatlarining taktik yo'nalishdagi razvedkachi "Syorcher", operativ-taktik yo'nalishdagi razvedkachi-zarbdor "Germes-450" va strategik yo'nalishdagi "Germes-900", operativ-taktik yo'nalishdagi

razvedkachi-zarbdor "Geron-1" hamda strategik yo'nalishdagi razvedkachi-zarbdor "Geron-TP" tipidagi dronlar bilan ta'minlangan aviatsiya eskadrilyalari kiritilgan.

Xususan, bugungi kunda dunyodagi eng yirik uchuvchisiz vositalardan biri hisoblanuvchi "Geron-TP" asosan quruqlikdagi bo'linmalarni havodan qo'llab-quvvatlash, uzoq masofalarda razvedka ishlarini olib borish, dushmanning ballistik raketalarini qurilmalarini izlash va yo'q qilishga mo'ljallangan. Apparat nazorat ostiga olingan rayonlarda 14 800 metr balandlikda 45 soat mobaynida faoliyat olib borishi mumkin. 1,8 tonnagacha og'irlikdagi foydali yuklanmani olib uchishga qodir bo'lgan "Geron-TP"ning qanot ko'lami 35 metr, maksimal uchish tezligi soatiga 460 km (*o'rtacha tezligi – 296 km/s*).

Isroillik mutaxassislarning yangi ishlanmalaridan biri hisoblanuvchi "Grin Dregon" aeromobil guruhlar va maxsus bo'linmalar uchun mo'ljallangan bo'lib, umumiy og'irligi 15 kg.ni tashkil etadi. Yuqori aniqlikdagi optik-elektron stansiya bilan jihozlangan mazkur



apparat 50 km radiusda razvedka ishlarini olib borishi mumkin. Uni boshqarish planshet tipidagi boshqaruv pulti yordamida amalga oshirildi. Elektr dvigatel bilan ta'minlangani sababli deyarli shovqinsiz ishlashi va yuqori aniqlikka egaligi "Grin

Dregon"ni maxsus operatsiyalarni o'tkazishda ideal vositaga aylantiradi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, uchuvchisiz uchish tizimlari rivojini Isroil misolida tahlil qilish hozirga kelib dunyo insonning urushdagi va kundalik hayotidagi roli hamda o'rni borasidagi an'anaviy tasavvurlarni butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin bo'lgan chinakam "uchuvchisiz vositalar inqilobi" arafasida turganligini ko'rsatmoqda. Hozirda dunyoning 80 ga yaqin mamlakati ishtirokida haqiqiy "dronlar poygasi" bormoqda. Ekspertlar fikricha, joriy yilda UUALarning jahon bozorida hajmi 50 mlrd dollardan oshadi. Mazkur jarayonda harbiy yo'nalishdagi uchuvchisiz



tizimlar alohida va muhim ahamiyatga ega bo'lib, Isroil bu sohada yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi.



O'ZBEKISTONDA



BAXSHICHILIK SAN'ATINI RIVOJLANTIRISHGA BAG'ISHLANDI

Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markaz tomonidan "Milliy baxshichilik san'atining rivojlanish bosqichlari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi.

Ushbu konferensiyani o'tkazishdan asosiy maqsad baxshichilik va dostonchilik san'atini rivojlantirish, "ustoz-shogird" an'alarini mustahkamlash, o'zbek hamda boshqa xalqlarning dostonlarini ilmiy o'rganish, bu borada o'zaro ijodiy hamkorlik qilishdan iborat. Konferensiyada professorlar, olimlar hamda yetuk mutaxassislar, shu sohada ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borayotgan soha vakillari o'zlarining mavzuga oid ma'ruzalari bilan ishtirok etdi.

Ushbu ilmiy-amaliy konferensiya baxshichilik va dostonchilik san'atini keng targ'ib qilish, yosh avlod qalbida ushbu san'at turiga hurmat va yuksak e'tibor tuyg'ularini kuchaytirishga xizmat qilishi shubhasiz.



XOTIN-QIZLAR UCHUN BELGILANAYOTGAN KAFOLATLAR

Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi majlisi bo'lib o'tdi.

Majlisda O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Mehnat kodeksida xotin-qizlar uchun belgilanayotgan kafolatlar to'g'risidagi masala muhokama qilindi.

Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi 2 qism, 34 bob va 621 moddadan iborat bo'lib, unda bandlik, individual mehnat munosabatlari, xodimlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ayrim toifadagi xodimlar mehnatini tartibga solish xususiyatlari, xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish, mehnat nizolarini ko'rib chiqish kabi dolzarb masalalar o'z aksini topgan.

Mazkur hujjat gender tenglik talablariga muvofiq tahrir etilgani bilan ham ahamiyatlidir. Ayniqsa, onalik bilan bog'liq masalada xalqaro standartlarga mos keladigan me'yorlar belgilangan.



11 MILLION TUP TUT KO'CHATI EKILADI

Samarqand viloyatida bugungi kunda 11 ta pillachilik klasteri faoliyat ko'rsatmoqda. Viloyat hokimligi axborot xizmatining yozishicha, joriy yilda 54 ming 518 quti ipak qurti parvarishlanib, 3 ming 108 tonna pilla xomashyosi yetishtirish rejalashtirilgan.

Kutilayotgan hosildorlikka erishish uchun ozuqa bazasi zarur. Korxonalar tomonidan yildan yilga yalpi hosilni oshirib borish rejalashtirilgan. 2021-yilda 472,4 gektar maydonda tutzor barpo etildi. Samarqandlik pillakorlari "Yashil makon" umummilliy harakati doirasida tut ko'chatlarini ekish va yangi tutzorlarni barpo etishga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Har bir yirik pillachilik klasteri tomonidan birlashtirilgan tumanlarda 1 million tupdan tut ko'chatlari ekiladi. Dalada yerlarni tayyorlash imkonini tug'ilishi bilan tut ko'chatlarini ekish ishlari boshlab yuborilgan.

(O'ZA)

JAHONDA

MUROJAATDA E'OLON QILDI



Vladimir Putin, Denis Pushilin va Leonid Pasechnik Rossiya bilan Donetsk Xalq Respublikasi (DXR) va Lugansk Xalq Respublikasi (LXR) mustaqilligini tan olish to'g'risidagi hujjat hamda do'stlik va o'zaro yordam to'g'risidagi shartnomalarni imzoladi. Rossiya DXR va LXR suverenitetini tan oladi. Bu haqda Rossiya Prezidenti Vladimir Putin rossiyaliklarga murojaatida e'lon qildi. 21-fevral kuni o'zini-o'zi mustaqil deb e'lon qilgan Donetsk Xalq Respublikasi va Lugansk Xalq Respublikasi rahbarlari Rossiya Prezidentidan bu respublikalarni tan olishni so'ragan edi.

qilgan Donetsk Xalq Respublikasi va Lugansk Xalq Respublikasi rahbarlari Rossiya Prezidentidan bu respublikalarni tan olishni so'ragan edi.

XITOIY QARSHILIK BILDIRD



Xitoy hukumati AQSh Prezidenti Jo Baydenning Afg'onistonning muzlatib qo'yilgan mablag'larini 2001-yilda Amerikada sodir etilgan terakt qurbonlariga berish to'g'risidagi qaroriga qarshilik bildirdi. Bu haqda Xitoy Tashqi ishlar vazirligi vakili Van Venbin ma'lum qildi. "Bu pullarni Afg'onistonga qaytarish kerak. Ular afg'on xalqi farovonligi uchun ishlatilishi lozim. Biz Amerika tomoniga murojaat qilamiz va ularning xato harakatlarini anglashini so'raymiz, qisqa muddat ichida Afg'onistonning Qo'shma Shtatlardagi mablag'lari muzlatilishiga olib kelgan sanksiyalarni bekor qilishini talab qilamiz", deb ta'kidladi u.

anglashini so'raymiz, qisqa muddat ichida Afg'onistonning Qo'shma Shtatlardagi mablag'lari muzlatilishiga olib kelgan sanksiyalarni bekor qilishini talab qilamiz", deb ta'kidladi u.

CHEGARADAGI MOJAROLAR



Rossiyalik harbiylar mamlakat chegarasini buzib o'tishga uringan besh nafar ukrainalik razvedkachilar o'ldirilganini ma'lum qildi. "Rossiya Federal xavfsizlik xizmati chegarachilari Janubiy harbiy okrug maxsus kuchlari bilan hamkorlikda Rostov oblastida Rossiya davlat chegarasini Ukraina tomondan kesib o'tishga uringan ikkita harbiy mashinadagi guruhni aniqladi. Qurolli qarshilik ko'rsatgan guruh yo'q qilindi", deyiladi FXX xabarida.

Ukraina tashqi ishlar vaziri Dmitriy Kuleba Ukraina hech kimni razvedka uchun BTR bilan Rossiya tomonga yubormaganini ma'lum qilib, chegara hududida ukrainalik harbiylar halok bo'lgani haqidagi xabarlarini rad etdi.

TABIY OFAT OQIBATIDA



Rio-de-Janeyro shimolidagi tog'li hududda joylashgan tarixiy Petropolis shahrida kuchli yomg'irlar natijasida ro'y bergan suv toshqinlari va ko'chliklar oqibatida yuzdan ortiq kishi qurbon bo'lgan. Mahalliy rasmiylar xabar qilishicha, uch soat ichida bu hududga bir oylik yog'ingarchilik normasi tushgan. Petropolisda suv toshqini boshlangach, nishablikdagi uylar tuproq ostida qolib vayron bo'lgan, ko'chalarni suv bosgan. Qidiruv-qutqaruv otryadlari omon qolganlarni izlashda davom etmoqda. Fuqarolik mudofaasi milliy xizmati ayni vaqtga kelib 104 kishining o'limi tasdiqlangani, 24 kishi tirik holda topilganini ma'lum qilgan. Yana 35 kishi bedarak yo'qolgan, deb hisoblanmoqda.

qolganlarni izlashda davom etmoqda. Fuqarolik mudofaasi milliy xizmati ayni vaqtga kelib 104 kishining o'limi tasdiqlangani, 24 kishi tirik holda topilganini ma'lum qilgan. Yana 35 kishi bedarak yo'qolgan, deb hisoblanmoqda.

MINTAQADA



ISHBILARMONLAR BIZNES-FORUMI

Tehron shahrida O'zbekiston - Eron ishbilarmolari biznes-forumi bo'lib o'tdi. Tadbirda o'zaro hamkorlik ko'lami kengayib borayotgani, ko'plab sohalarda o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilayotgani ta'kidlandi. Tadbir dasturi doirasida investitsiyalarni jalb qilishning eng istiqbolli yo'nalishlari hamda ustuvor tarmoqlarda O'zbekistonning investitsiyaviy salohiyati va tayyor loyiha takliflari to'g'risida taqdimotlar o'tkazildi. Forum yakunlari bo'yicha Eron va O'zbekiston ishbilarmolari o'rtasida qiymati qariyb 200 million dollarlik qator investitsiyaviy bitimlar va savdo shartnomalari imzolandi.



YOSHLAR FESTIVALI O'TKAZILDI

Tojikiston poytaxti Dushanbe shahrida mamlakat Qurolli Kuchlari tashkil topganining 29 yilligiga bag'ishlangan "Vatanim va xalqimga sadoqat bilan xizmat qilaman" shiori ostida festival bo'lib o'tdi. Poytaxt meriyasi tashabbusi bilan tashkil etilgan mazkur tadbirdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad yoshlarni sport bilan shug'ullanishga jalb qilish, vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib qilish, harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishtirish va chaqiriluvchilarni o'z fuqarolik burchini bajarishga undashdan iborat edi. Festival doirasida bir qancha sport turlari bo'yicha qiziqarli musobaqalar ham o'tkazildi.



YANGI LOYIHALAR TAQDIMOTI

Qirg'iziston Tashqi ishlar vazirligida Shveysariya bilan diplomatik aloqalar o'rnatilganining 30 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirda o'zaro hamkorlik doirasidagi yangi rejalar taqdimoti ham bo'lib o'tdi. Unga ko'ra, tomonlar 2025-yilgacha umumiy qiymati 80 mln Shveysariya franki (taxminan 86,6 mln dollar)ga teng bo'lgan bir qator loyihalarni amalga oshirishni rejalashtirgan. Bu loyihalar asosan davlat boshqaruvi va iqtisodiyot sohasidagi islohotlarni jadallashtirish, shuningdek, suv xo'jaligi salohiyatini kengaytirish va iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashni kuchaytirishga qaratilgan.



O'TTIZ YILGA MO'LJALLANGAN

Ashxobodda bo'lib o'tgan Xalq Maslahati va Milliy Gengesh yig'ilishida "2022-2052-yillarda Turkmanistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish milliy dasturi" ko'rib chiqildi hamda mamlakat Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov va xalq hokimiyati vakillari tomonidan ma'qullandi. Ta'kidlanishicha, o'ttiz yilga mo'ljalangan mazkur dastur milliy iqtisodiyotning barcha sektorlarini modernizatsiyalash, iqtisodiy mustaqillik va xalq farovonligi oshirilishini ta'minlash, mamlakatning eksport salohiyatini kengaytirish, dadil va samarador innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va boshqa ko'plab yo'nalishlarni qamrab olgan.



# YOSHLARNING BO'SH VAQTI MAZMUNLI O'TMOQDA



Bugungi kunda yurtimizda yosh avlodni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviyatini yuksaltirish va jismoniy barkamol bo'lib ulg'ayishiga katta ahamiyat berilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Qashqadaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Kasbi tumani o'quv sport-texnika klubida ham izchil amalga oshirilayotgan ishlarga guvohmiz. Prezidentimizning 2022-yil 19-yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida tashkillashtirilgan turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuv va davra suhbatlari hamda sport musobaqalari shular jumlasidan.

– Tuman o'quv sport-texnika klubi jamoasi mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ular orasida milliy xalq o'yinlari va sport turlarini ommalashtirish borasida bir qancha ishlarni amalga oshirmoqda, – deydi O'STK boshlig'i Jasurbek Baratov. – Bundan ko'zlangan maqsad – yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishi va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash. Shu maqsadda yaqinda "Vatanparvar" tashkiloti viloyat kengashi, tuman mudofaa ishlari, xalq ta'limi bo'limlari, Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Ayni paytda tashkilotda ommaviy kasbdagi ko'plab texnik mutaxassislar tayyorlanmoqda. Shuningdek, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish masalasi ham e'tibordan chetda emas. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish bo'yicha tadbirlar yangicha yondashuv asosida o'tkazilmoqda. Karting bo'yicha viloyat miqyosida o'tkazilgan musobaqalarda sportchilarimiz faol qatnashib, yuqori o'rinlarni



egalladi. Sport bilan muntazam shug'ullanishda shart-sharoitlarning, turli seksiyalarning doimiy faoliyat ko'rsatishi ham muhim omil bo'lmoqda. "Havo miltig'idan o'q otish", "Karting", "Yozgi biatlon", "Avtokross" kabi seksiyalarda 50 nafardan ortiq yosh muntazam shug'ullanadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, tuman o'quv sport-texnika klubi jamoasi umumta'lim maktablarida Yoshlar ishlari agentligi, mudofaa ishlari, "Nuroni" jamg'armasi bilan hamkorlikda turli tadbirlar o'tkazib kelayotgani ertamiz davomchilarida harbiy-vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.



Xizmatlar litsenziyalangan.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Qashqadaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Kasbi tumani o'quv sport-texnika klubi jamoasi tumanda istiqomat qilayotgan barcha yoshlarni sportning texnik va amaliy turlaridan "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon", "Karting", "Avtokross" kabi seksiya va to'garaklarda shug'ullanishga taklif etadi.

📍 Kasbi tumani Mo'g'lon shaharchasi, "Vatanparvar" tashkiloti o'quv binosi.

☎ 99-525-84-62; 94-529-86-68.







Ayol eri uchun butun umrga suyuqli va kerakli bo'lib qolishning iloji bormi? Albatta, bor. Faqat buning uchun ayol kishi harakat qilishi kerak. Axir yillar davomida orangizdagi masofa uzoqlashib borishi ham mumkin... bunday bo'lishiga aslo yo'l qo'ymang.

**Uni o'zgartirib bo'lmaydi...**

Agar turmush o'rtog'ingizning sizga yoqmaydigan odati bo'lsa, uni o'zgartirishga yoki yo'q qilishga urinmang. Masalan, kiyimlarini joyiga qo'ymasligi, vannada ko'p qolib ketishi, chapillatib ovqatlanishi va hokazo. Bu odatlarni sizni g'azablantiruvchi, eringizni esa buning natijasida asabiylashtiruvchi omilga aylantirmang. Siz bu orqali uning odatlarinigina emas aslida uning

# SEVIMLI AYOL BO'LISH OPERATSIYASI

(Psixolog maslahati)

o'zini ham qabul qilmayotganingizni ko'rsatmoqdasiz. Sizga yoqmaydigan bu odatlarga ahamiyat bermaslik yoki kichik bir kamchilikka qataganday qarashni o'rganing. Axir sizda ham turmush o'rtog'ingizga yoqmaydigan odatlar bor-ku... Uning yaxshi tomonlarini ko'rishga harakat qiling.

**Xatolaringizni tan oling...**

Er-xotin orasida tushunmovchilik ro'y bersa, o'z aybingizni tan olishga o'rganing. Turmush o'rtog'ingiz

xato qilib, sizdan kechirim so'rasa, uni kechira biling. Janjaldan alamsiz chiqib ketishning eng oson yo'li kechirim so'rash. Alamingizni ichingizga yutmang, uni unutishga harakat qiling. Agar buni unutmangiz umr davomida alamlaringiz ko'payib, o'rtangizga sovuqchilik tushishiga sababchi bo'ladi.

**Xafa bo'lsangiz, ayting...**

Odatda, ayollar turmush o'rtog'idan xafa bo'lsa, indamay yuradilar. Eri

esa "Nima bo'lgan ekan, nega arazlayapti?" deb tushunmay yuradi. Ayollar erkakning o'zi anglashini istaydi. Lekin buning iloji yo'q. Erkakning psixologiyasi shundayki, ularga ochiq-oydin xafagarchilik sababi aytilmasa, uni o'zlari hech aniqlay olmaydi yoki bu haqda o'ylamaydilar ham. Shuning uchun er-xotin orangizda tushunmovchilik yuz berib, turmush o'rtog'ingiz sizni xafa qilib qo'ygan bo'lsa, indamay yurishni cho'zmang. Albatta, 3-4 soatlik sukunat foyda bo'la oladi, lekin kunlab davom etadigan arazlash hech kimga foyda keltirmaydi. Balki bir-biringizdan uzoqlashishingizga sabab bo'lib qoladi. Shuning uchun biroz vaqt o'tganidan so'ng xafa bo'lganingizni ochiq oydin ayting. Faqat jim yurmang, fikringizni bildiring.



AYOLLAR BEKATI

## Fevral – vitaminlar keskin kamayuvchi oy



Televideniye e'tibor bersangiz, vitaminlar reklamasi ko'paydi. Sababi aynan fevral, mart vitaminlar kamayadigan oy. Shu tufayli bu oylarda vitamanga boy mahsulotlarni yeyish maqsadga muvofiq.

**Tavsiya:**

1. Ovqat xilma-xilligini oshiring. Taomni ko'katlar bilan iste'mol qilishga harakat qiling. Quruq mevalar, bodom, yong'oq, o'rik hokazolarni bir-ikki donadan tanovul qiling.
2. To'g'ri saqlangan mevalarni yeng. Dorilangan mevalardan qoching. Banan va sitruslardan ayniqsa hushyor bo'ling.
3. Vitaminlar qabul qiling.
4. Bolalar ayniqsa, vitamin kamayishiga ta'sirchan. Bunday vaqtda ularda kayfiyatning o'zgarishi, qaysarlik yoki uyquning buzilishi kabi o'zgarishlar paydo bo'lishi mumkin.
5. Quyoshni izlang va u bilan hamnafas bo'ling. Quyosh va toza havoda piyoda sayr qiling.

**Qo'ziqorin va loviyali antiga shaurma**



**Kerakli mahsulotlar:** qo'ziqorin 75g, bulg'or qalampiri 35 g, pomidor va piyoz 2-3 dona, konservalangan loviya 50 g, salsa sousi 2 osh qoshiq, o'simlik yog'i 15 ml, tuz, lavash xamiri.

**Tayyorlanish jarayoni:** bulg'or qalampiri, pomidor, piyoz va qo'ziqorinni o'simlik yog'ida qovurib oling. Konservalangan loviya, sous va tuzni solib, aralastiring. Aralashmani lavash xamiriga solib, rulet shaklida o'rang. Lavashning har ikki tomonini yengil qizartirib oling.

**Yoqimli ishtaha!**

**Go'zallik uchun 15 daqiqa**

**QURUQ YUZ PARVARISHI UCHUN OZIQLANTIRUVCHI NIQOBLAR**

1 dona ko'pirtirilgan tuxum oqini 1 choy qoshiq asal va 2 choy qoshiq un bilan aralastiriladi. Tayyor niqobni yuzga surib, 10 daqiqa qoldiramiz. So'ng iliq suv bilan yuvib tashlanadi.

Tuxum sarig'iga 1 choy qoshiq asal va sut qo'shib aralastiramiz. Yuzimizga surib, 15 daqiqadan so'ng

yuvib tashlaymiz. Bu jarayon haftada bir marta amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.





## XALQONA TUS

## OLAYOTGAN FESTIVAL

Ommaviy axborot vositalari orqali yurtimizning turli hududlarida yoshlar festivallari o'tkazilayotganidan xabardorsiz, albatta. Ana shunday festivallarning navbatdagisi Toshkent tumanidagi 9-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabida bo'lib o'tdi.

Tuman markazida joylashgan ushbu maktabda tashkil etilgan mazkur festival chinakam yoshlar bayramiga aylanib ketdi. Shu yerda bir muhim jihatga e'tiboringizni qaratmoqchi edim. Festival qish yakunlanib, yurtimizga bahor fasli kirib kelayotgan bir paytga to'g'ri kelmoqda. Odamlar, yoshlar bunday tantanalarni ancha sog'ingan. Shu bois karnay-surnay, harbiy orkestr sadolarini eshitgan butun xalq bu yerga jam bo'lgan. Harbiy texnikalar va badiiy san'at ko'rgazmalari, sport musobaqalari, kitoblar taqdimoti, pazandalik, tikuvchilik, sataroshlikdan mahorat darslar, doshqozonlarda qaynayotgan sumalak, chorpoyalarda o'tirib suhbat qurayotgan nurli otaxon-u, farishta onaxonlar, bularning bari xalqimizning sevimli bayramlaridan biri Navro'z saylini eslatadi. Biz ijodiy jamoamiz bilan bu yerga kelganimizda dastavval tuman Navro'z saylini birinchilardan bo'lib boshlab beribdi-da, degan xayolga borganimiz ham rost. Ammo bu kuch tuzilmalari, xususan, Mudofaa vazirligi bosh-qosh bo'lib o'tkazayotgan yoshlar festivali. Ha, bu kabi tadbirlarning odamlar qalbiga kirib borib, shunday xalqonalik kasb etib borayotgani chin bo'lsin.

Podpolkovnik  
B. SOBIROV,  
I. NURALIYEV

## FIKRN O'LDIRADIGANLAR UCH KARRA QOTILDIR

Haqiqiy kitobni o'qish uni yopgandan keyin boshlanadi.

\* \* \*

Shoir hammaniki va... hech kimniki.

\* \* \*

O'zing xarob bo'lsang, dunyoni qanday obod etasan, ey ko'ngil?!

\* \* \*

Chuqur ketmaylik, deymiz. Bilmaymizki, bizning bu "chuqur"larimiz naqadar sayoz, qanchalar yuzada.

\* \* \*


Aytilmagan so'zning ham uvoli bor.

Behzod FAZLIDDIN

## "VATANPARVAR" BILIMDONLARIGA

JAVOB:

Zangar shahrining podshosi Buvraxon vafot etadi. U vaqtda podsholarga rasm shu edi: davlat qushi degan qushni uchirar edi, kimning boshiga qo'nsa, podsho qilar edi. Davlat qushi borib Kuntug'mishning boshiga qo'nadi va yurtning podshosi bo'ladi.



SHU SONNING ELEKTRON SHAKLI

## ТАЪЗИЯНОМА

Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги раҳбарияти, марказий аппарати ва шахсий таркиби вазирлик Тарбиявий ва мафкуравий ишлар бош бошқармаси бошлиғи полковник Халилов Ҳасан Облоқуловичга онаси **Майсара ХАЛИЛОВА Олимовнанинг** вафоти муносабати билан ҳамдардлик билдиради.

## ТАЪЗИЯНОМА

Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги раҳбарияти, марказий аппарати, Марказий ҳарбий округ қўшинлари қўмондонлиги ва шахсий таркиби округ Тарбиявий ва мафкуравий ишлар бошқармаси бўлим бошлиғи подполковник Бозоров Содиқжон Нормуминовичга турмуш ўртоғи **Зилола БОЗОРОВА Нуриддиновнанинг** бевақт вафоти муносабати билан ҳамдардлик билдиради.

VATANPARVAR

MUASSIS



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:

polkovnik Hamdam Qarshiyev  
polkovnik Otabek Yuldashev  
polkovnik Alisher Boboxonov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

mayor Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 71 260-36-50  
buxgalteriya: 71 260-35-20  
yuridik bo'lim: 71 260-29-41  
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: mayor Gulnora Hojimumrodova

Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva

Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: Г-0205

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 32 689 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:

100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.